

**ОБРАЗОВАНИЕ,**

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ  
В МИРЕ**

**международный научный электронный журнал**

*Выпуск журнала № 14  
Часть-1\_ Февраль 2023*

OPEN  ACCESS



# ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

*международный научный электронный журнал*

Февраль - 2023 год

ЧАСТЬ - 1





## МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ РАСМ ЧИЗИШГА О`RGATISH

*Rustamov Jahongir Rustamovich*

*Buxoro pedagogika kolleji*

*Tasviriy faoliyat metodikasi fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni rasm chizishga o`rgatish va qay tarzda qiziqtirib olish, bolalarda o`rganish jarayonida uchraydigan muammolar, bolalardagi mavjud iqtidorlarni mana shu yo`l orqali bilib olish mumkinligi haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** rasm, spektr, bo`yoq, rang, estetik his-tuyg`u, **kompetensiya**

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi maktabgacha va makrab ta`lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta`limiga tayyorlashga alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1. "Ilk qadam" dasturini ta`lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to`laqonli ishlab ketishida metodik ta`minot va metodik yordamning o`rni belgilab olindi. 2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o`rniga alohida e`tibor qaratildi.

O`zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan " Davlat talablari", "Ilk qadam" Davlat o`quv dasturi asosida bolalarni badiiy –ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish, Ijodkorlik, izlanish orqali ijodiy ishlarni yarata olish qobilyatini shakllantirishdan iboratdir. MTT o`quv Dasturi yillik ish rejasi bo`yicha berilgan vazifalar asosida turli yosh guruhlarda rasm chizish, plastilin loy bilan ishlash, applikasiya, qurish-yasash, tasviriy san`at haqida bilim berish mazmuni va kompetensiyalarini; Maktabgacha ta`lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida bolalarni buyumlarni bosqichma-bosqich chizishga o`rgatish usullarini o`rganadi

Kichik guruhlarda o`rgatishning mazmuni va vazifalari.

Uch yoshli bola qalam, mo`yqalamni to`g`ri ushlashi mumkin, lekin uning tajribalari kam, bajara olish va bilish qobiliyatlari yo`q, qo`l harakatlari yetaralicha rivojlanmagan. Shuning uchun asosiy vazifalar bolalarga umumiy tarbiyaviy tasvir qilish bilan bog`liqdir.

Kichik guruhda o`rgatishning vazifalari quyidagilar:

-Rasm chizish jarayoniga qiziqishni uyg`otish.

-Rasm chizish materiallari „qalam, bo`yoqlar“ va ulardan foydalanish usullari bilan tanishtirish.

-Katta yoshli odam chizgan rasmni, predmetning tasviri deb tushunishni o'rgatish.

-To'g'ri va egri chiziqlarni, shakllarni chizishni o'rgatish.

Bu guruhda to'g'ri va egri chiziqlarni to'g'ri chizishga o'rgatish birinchi vazifa bo'lib qoladi. Bunda turli chiziqlarni turlicha chapdan o'ngga, tepadan pastga, kesishgan chiziqni chizishga o'rgatiladi. Bularni, masalan tizimcha, yo'lakcha, qalam, yomg'ir shaklida chizish mumkin. Kichik guruh bolalariga bir xil shakldan (qorbobo, ikki yoki uch aylanadan iborat) yoki ikki xil shakldan iborat quyi bitta aylana va birgina to'g'ri chiziqdan iborat bo'lgan predmetlarni ancha qiyin, chunki uch yoshli bolaning tahlil sintez qilib fikrlashi yaxshi rivojlanmagani uchun bu guruh dasturida faqat ikki xil shakldan iborat bo'lgan predmetni masalan, (quyoshning nurlari, archaning ignachalari) tasviri kiritilgan. Shakl qanchalik murakkablashsa rangdan foydalanishi ham shunchalik murakkablashadi. Bolalar rasmda aniq predmetlarni tasviri uchun shu predmetga mos rangni ishlata olishni o'rganadilar.

O'rta guruhlarda o'rgatishning mazmuni va vazifalari

Bu guruhda o'rgatishning vazifalari quyidagilar:

- To'g'ri to'rtburchakli va aylanasimon shakldagi predmetlarni tasviriy ularning tuzilishini, asosiy qismi va detallarini berishga o'rgatish.
- Rangdan badiiy ifodalash vositasi sifatida foydalanishga o'rgatish.
- Qog'oz markazida predmetni joylashtirishda kompozision uquvini bilishda rivojlantirish.
- Rasmni qalam va bo'yoq bilan bo'yashda texnik ko'nikmalarni mustahkamlash.

Bu guruhda bolalarga ritmik joylashgan predmetning qismlarini tasviriy o'rgatiladi. (yuqorida, pastda, bir tomonda, boshqa tomonda) hamda bir qancha proporsional joylashgan qismlarni tasviriy o'rgatiladi. Bu alohida qismlarni o'zaro solishtirish va taxlil qilish imkonini beradi. Masalan, Qorbobo va archa 2 tomonlama joylashgan novdalari bilan. Bu guruhda tasviri qiyin bo'lgan ob'ektni odamni rasmini chizish mashg'ulotlarga kiritiladi. Odamni chizishdan oldin bolalar soddaroq shakllarni qorbobo, , qo'g'irchoqlarini chizish edi.

O'rta guruhda mazmunli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.

O'rta guruh bolalariga rasm mashg'ulotlari asosan yil boshidan o'takazila boshlanadi, sababi kichik guruh bolalariga qaraganda ular ma'lum mazmun asosida lo'nda qilib rasm ishlay olish qobiliyatiga egadirlar. Bolalarda rasm chizish malakasini rivojlantirish maqsadida 2-3 predmetni ko'rsatish mashqlari bilan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Rasm ishlash mazmuni quyidagilardir.

-Mazmunli jihatdan bir-biriga o'xshash 2-3 predmetli rasm chizdirish.

-Bir necha predmetlarning joylashishini belgilash.

- Bola 4 yoshdan boshlab predmetlarning yonma-yon joylanishini, odamlarning ko'rinishini faqat old tomondan, hayvonlarning ko'rinishini faqat yon tomondan bir yo'lda chiza olish qobiliyatiga egadirlar. Masalan, , “Bolalarning qishki o'yinlari”.

O'rta guruhdagi bolalar rasm chizishni faqat bir yo'nalishda chizishlaridan tashqari, bir varaqni to'ldirib chizish malakalarini ham rivojlantirib boradi. Ma'lum narsani ko'rib, tasavvur qilgan holda rasm chizadi, uning aqliy qobiliyati rivojlanadi, o'sib boradi. Har bir mashg'ulot bolalarini aqliy va estetik ruhda tarbiyalashga, jamoat ishlarini bajara olishga asos bo'ladi.

Katta guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari. Bu guruhda bolalarni tasviriy va yorqin obrazlarni yaratish qobiliyatlarini tasviriy turli usullardan foydalanib chizishga o'rgatiladi. Quyidagi vazifalar bor:

- Predmetning shaklini uning belgilarini hajmini va qismlarining joylashishini o'rgatishni davom ettirish.
- Rasmda sodda harakatlarni tasvirlashga o'rgatish.
- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish va mustahkamlash.
- Qalam bilan (shtrixlash usullari) va bo'yoqlar, mo'yqalam harakatlarining usullari bilan ishlashda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish.
- Rangli bo'rlar, ko'mirlar, akvarel bo'yoq bilan chizish usullarini o'rgatish.

Bu yoshda bolalar rasmda bir xil predmetni o'xshash va farqli tomonlarini tasvirlash va topishga o'rganadilar. Masalan, 2ta turli olmalar formasi va rangi bilan farqlanadi, yoki lavlagi bilan turup, ular sabzavotlar uchun umumiy bo'lgan dumaloq shaklda. Bu guruhda bolalar yana asosiy spektr ranglari bilan tanishib, rasmda ularning chiroyli turlanishlarini keltirib chiqarishni o'rganadilar. Bolalar rangli qalamlardan tashqari oddiy qora qalam bilan predmetning umumiy belgilarini chizib olish uchun foydalanadilar.

### **Tayyorlov guruhida rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.**

Bu guruhda tasvirlash qobiliyatiga va ko'nikmalarga o'rgatish yakunlanadi. Quyidagi asosiy vazifalar bor:

- Naturadan va tasavvur qilishdan predmetning karakterli belgilari to'zilishini, hajmini tasviriyga o'rgatish.
- Shakl va bo'yoqlarning boyligi tasvirlab berishga yorqin obrazlar yaratishga o'rgatish.
- Kompozision qobiliyatlarni rivojlantirish (predmetning hajmi va formasining karakterini hisobga olib predmetni qog'ozda joylashtirish).
- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish (1 rangni turli ottenkalarini bera olish qobiliyati).
- Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish (bo'yoqlarni boshqacharoq bo'yoq olish uchun aralashtirish, predmet formasi bo'yicha qalamda shtrix o'tkazish).

Olti yoshli bolalarda analitik fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ulardan turga mansub predmetlar belgisini ajrata olganliklari kabi, ularning bir



predmetni boshqasidan ajratib turuvchi individual xususiyatlarini ham tasvirlay oladilar. Bu esa ijodiy tasavvurni rivojlantiradi.

Chizish bu bola uchun katta va jiddiy ish. Boshqa faoliyat turlari bilan taqqoslaganda rasm chizishning ma'lum bir afzalligi shundaki, bu ijod turi ko'plab aqliy funksiyalarning muvofiqlashtirilgan ishtirokini talab qiladi. Taniqli o'qituvchi I.Disterveg shunday deb ishongan: "Bir soat ichida rasm chizgan kishi to'qqiz soatgina qaraydiganga ko'proq narsani oladi. Ko'rish harakatni muvofiqlashtirish, nutq va fikrlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng muhim aqliy funksiyalar bilan bog'liq bo'lish chizish nafaqat ushbu funksiyalarning har birini rivojlanishiga yordam beradi balki ularni bir-biri bilan bog'laydi. Bola tez o'zlashtirilgan bilimlarni soddalashtirishga, tobora murakkablashib borayotgan g'oyaning modelini shakllantirishga va tuzatishga yordam beradi.

**Xulosa.** Maktabga bolalami tayyorlashda rasm chizish katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy san'at darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsadi sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir bolaning o'z hayotiy faoliyatini olib borishi va boshqarishi ungga berilgan ilk ta'limdan boshlanadi, bolada o'z kuchiga ishonish uning mana shu yoshidan boshlanadi. Tasviriy faoliyatining rivoji esa uning hayotidagi muhim ahamiyat kasb etgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Bolaga to'g'ri tarbiya berish esa, eng asosiysi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O.,zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O.,zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O.,zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O.,zbekiston, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O.,zbekiston, 2017. - 104 b.
5. 2017-2021 yillarda O.,zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O.,zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi" T-2010

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA BOLALARNI APPLIKATSIYA QILISHGA O'RGATISH AHAMIYATI

*Bo'ronova Nigora Ibodovna*

*Buxoro pedagogika kolleji*

*Badiiy ijodiy faoliyat o'quv amaliyoti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar applikatsiya qilishga o'rgatish usullari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** applikatsiya, yosh guruhlar, ko'rgazmalar, qaychi, rangli qog'oz, kvadrat, oval to'g'ri to'rtburchak

**Applikatsiya** xalq amaliy san'atida keng o'rin tutadi. Applikatsiya so'zining ma'nosi, qirqib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qog'oz, mato, charm, somon, quritilgan o'simliklar, urug'lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

**Applikatsiya**— badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, sovg'alar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, panno, naqshlar va shu kabilarni yaratishda ham keng foydalanish mumkin.

Qirqib – yopishtirish mashg'ulotlari kichik guruhdan boshlab o'rgatiladi. Bu guruhda qirqib – yopishtirishning mazmuni soddagina, bolalar tayyor shakllardan buyumlar yasaydilar. Bu faoliyatlarning maqsadi va vazifasi bolalarga geometrik shakllarni tanishtirish, rangni anglatish va esda qoldirish uchun mashq qildirish, turli shakllarni to'g'ri joylashtirish uchun qog'oz betini chamalay bilish hamda son va miqdorning farqini bilishga o'rgatishdir. Bolalarning ko'zi yopishtiriladigan buyumning bir tekisligini va bir markaz tevaragida ko'z chamasini taraqqiy etadi: kvadrat va doiraning o'rtasini to'g'ri topishga, tekis va ozoda yelimplashga o'rganadilar. Qirqib – yopishtirish faoliyatlarida tarbiyachi bolalarni doira, kvadrat, uchburchakni to'g'ri aytishga va ularni bir-biridan farqlashga o'rgatadi. Bu vazifani tarbiyachi loy mashg'ulotlarida, ta'limiy o'yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar to'pning dumaloq shaklda ekanligini, qor odam dumaloq shakllardan, aravalarning g'ildiraklari ham dumaloq ekanligini o'rganadilar. Shuningdek tarbiyachi bolalarga oval, trapetsiya shaklidagi buyumlarni obrazli ifodalashga o'rgatadi Applikatsiyaga qiziqishni shakllantirish, bolalarni applikatsiya ishlariga jalb etish kerak Bolalarni tarbiyachi tomonidan qirqib, yelimplashga tayyorlangan shakllarni rang-tusiga ko'ra navbatma-navbat qo'yish va yelimplashga o'rgatib boriladi. Bolalarni geometrik shakllardan turli narsalar( uycha, aravacha) yasashga qiziqtirish. O'rta

guruhda applikasiyaga qiziqishni rivojlantirish, bunda turli Tasviriy ifodalarni yaratishga, applikasiya imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga e'tibor berish kerak. Bolalarni qaychini to'g'ri ushlash va qirqish, o'simlik va geometrik shakllardan kvadrat, doira naqshlar hosil qilish, ularni yelimplab boriladi. Qog'ozdan to'rtburchak va to'g'ri burchakli to'rtburchak kesib olish, to'rtburchakni diagonal bo'ylab kesish natijasida 2-3 shakl vujudga keladi. (qo'ziqorin, vagon). Jamoaviy mehnat mahsulotlarini yaratishga o'rgatish, qirqib-yopishtirish malakalarini mustahkamlanadi.

**Kichik guruhlarda applikasiya qilishga o'rgatish** Maktabgacha ta'lim muassasasida applikasiya mashg'ulotlari birinchi kichik guruh, ikkinchi kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Bu guruhda barcha mashg'ulotlarda bolalar kattalar tomonidan qilib berilgan tayyor shakllarni qog'ozga to'g'ri, turli xil joylashishda terib chiqib va yopishtirishga qaratilganidir. Bu guruhda asosiy vazifa-bolalarni elimlash usullarini o'rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan, bu malaka qator harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo'ladi, ya'ni mo'yqalamni to'g'ri ushlab, unda ozgina elim olish, shaklni teskarisi bilan qo'yib, elimni butun shaklga tekis qilib surib chiqish, surayotgan chap qo'lining barmog'i bilan shaklni tutib turish, so'ng mo'yqalamga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, shaklni sekin rang tomoni bilan o'girib, qog'oz varag'ining kerak joyiga qo'yish va salfetka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha elimni sekingina artib olish. Bu yoshdagi bolalarga ana shu harakatlarni egallab olish, albatta oson emas. Eng sodda shakl-kvadrat va doira uning uchun shu shakllardan ishni boshlash lozim. Yil davomida bolalar shu shakllarni nomini to'g'ri aytishni egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o'tkaziladigan Applikasiya mashg'ulotlarida faqat shu shakllar bilan kifoyalaniq qolish bo'lmaydi. Bu guruhda bolalarda dastlab bir; keyin 2-3 qismdan to'zilgan predmetlarni (qo'ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy) yopishtirishga o'rganadilar. SHuningdek, yil oxiriga borib bolalar olti-etti xil rangni qizil, ko'k, sariq, yashil, jigarrangni to'g'ri aytib berishlari lozim. Bu guruh bolalariga qaychi berilmaydi, chunki bolalarning qo'l harakati etarli taraqqiy etmagan va hali qurish nazorati etarli bo'lmaganligi sababli bolalar qo'lidagi qaychi xavf tug'dirishi mumkin.

Ikkinchi kichik guruhda bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishida ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish ahamiyatiga egadir. materialning rangi bolalarni diqqatini tortib ularni chalg'itadi. SHuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda material alohida paketlarda, tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lganidan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda kesmaga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga elim ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatish namuna bilan birgalikda olib borish kerak. namunani ko'rsatish jarayonida tarbiyachi shaklning



rangini aniq atash va barmog'i bilan uni ko'rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko'rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko'rsatib berilishi, bolalarni turli malaka va o'quvini vujudga kelishida muhimdir. shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib boradi. Qanday shaklni oldi, qanday ishlab qo'yib elim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Kichik maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar esa tayyor shakllarni va ularning rangini bir-biriga moslab, tanlab yopishtiradilar. Juda yaxshi estetik effekt bilan qilingan ishlar, ayniqsa dekorativ bezaklar guruh xonasini bezatish mumkin. SHunday qilib, olib borilgan tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, yaxshi uyushtirilgan applikasiya mashg'ulotlari, bolalarni boshqa mashg'ulotlarga, dekorativ, predmetli va syujetli mashg'ulotlariga ijobiy ta'sir etadi. Bolalarda sensor madaniyat oshadi, qo'l bilan tahlil qobiliyati o'sadi va badiiy didlari shakllanadi.

**O'rta guruhda applikasiyaqilishga o'rgatish** . Bola hayotining 5-yiliga kelib ham psixologik, ham jismoniy tomondan o'sadi. Bu esa bolaning applikasiya bo'yicha bajaradigan ishning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan predmetlarni tasvirlashga o'rganadilar.

O'rta guruh bolalari kichik guruhga nisbatan malaka va ko'nikmalarini ancha egallagan bo'ladilar. Bu guruh bolalari 2-3 qismli emas, balki 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga o'rganadilar. Dastlab, bu guruhga qaychi bilan ishlash kiritiladi. Bolalar qaychini to'g'ri ushlashga, uni richagini yopishga va ochish to'g'ri qirqim olishga o'rganadilar. Buning uchun oldin eskiz, keyin esa enli yoki keng qog'oz lentalar qirqishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar elimlash malakasini egallashi davom ettiradilar. Bola hayotining 5 yilida doira, kvadratdan tashqari uchburchak, oval, o'zun to'g'ri to'rtburchakni biladilar. Trapesiya shaklini esa kichik guruhda bo'lgani kabi obrazli tasviriya davom etadi. Masalan: tom, qayiqcha, kichik guruhga yana qo'shimcha havo rang, pushti, kulrangni sezishga va to'g'ri aytishga o'rganadilar. Bolalar to'g'ri kesmalar qirqishdan tashqari aylanaviy shakllar qirqishga o'rganadilar. Ular kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchaklarini dumaloqlashga o'rganadilar. Ana shu qirqib olingan aylanaviy shakllardan qo'ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o'rganadilar.

Yopishtiriladigan detallar soni ham ko'payadi, masalan: uyhani tasviriya faqat devori emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlaydilar. Shakl va rang bilan ishlash ham rivojlanadi: to'rtburcha, kvadrat, doira, uchburchak, pushti rang, kulrang, havo rang va boshqalar. Bu guruhda qog'oz varag'ida to'g'ri mo'ljallashga o'rganadilar va ko'yidagi tushunchalar bilan tanishib boradilar. Masalan: orasida, chekkada, bir xil masofada va boshqalar. O'rta guruhda tarbiyachi o'zining asosiy diqqatini bolalarni

qaychi bilan ishlashga qaratiladi. Yil davomida tarbiyachi bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi. Tarbiyachi qaychini to'g'ri ushlashga, qog'ozni to'g'ri ushlashga o'rgatib boriladi. Yopishtirish malakasi esa mustahkamlanib boradi. Bu guruhda asosiy vazifa bolalarni qirqish texnikasini egallab olishga qaratilgandir bu guruhda tarbiyachi bolalarni predmetli dekorativ, mazmunli applikatsiyaga o'rgatib boradilar.

**Katta guruhda applikatsiyaqilishga o'rgatish.** Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotining ma'lum bir qismi ikki va undan ortiq bolalar bilan birga ishlaydigan jamoa ish sifatida tashkil etish lozim. Bolalar birgalikda oldida turgan vazifani muhokama qiladilar, ish tartibini rejalashtirishadi, bir-birlariga yordam ko'rsatadilar. Applikatsiya mashg'uloti shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarining o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining 6-yilida kuzatishlar, o'yin sensor tarbiyaning ta'siri ostida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatleri to'g'risida bilim va tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy o'quvi va texnik usullari mavjud bo'ladi, qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan applikatsiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi. Bolalar xilma-xil shakllarni atashga, kvadrat, to'rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini to'g'ri atashga o'rgatib boriladi. SHuningdek, bolalarni oval, doira, uchburchakni to'g'ri ajratishga farq qilishni o'rgatadi. Shunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan tanishib boradilar. Masalan: och, to'q, yorqin ranglar va boshqalar. Bular orqali bolalar rangni sezishga, uni tanlay bilishga o'rganib boradilar. Bu ishda bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o'rgatib borish davom ettiriladi. Bu bilan o'rgatib borish davom ettiriladi, bu bilan bolalar o'rta guruhda egallagan qirqish usullarini takrorlab, mustahkamlaydilar va yangi qirqish usullarini egallaydilar. Bular quyidagilar: qog'ozni 2 buklab bir xil shakllar qirqish usuli, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqishga o'rganadilar. Masalan: gullar, barglar va hokazo. Bu guruhda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki applikatsiyaning sifatiga ta'sir etadi. O'quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o'rta guruhda etarli darajada egallamagan bo'ladilar. Bolalar predmetlarni qismlarga bo'lib, qirqib yopishtirishni o'rgangach, ularning qirqishning rasional usuli ya'ni garmoshka usulida qog'ozni buklab qirqishga qrganadilar. Ammo yilning boshida dumaloq shaklidagi predmetlarni qirqishni mustahkamlashga tarbiyachi quyidagi temalarda ishlar berishi mumkin. Masalan: ko'zgi barglar, sabzavot, mevalar, qo'ziqorinlar va hokazo. O'quv yili davomida bolalar predmetli applikatsiya ishlarini



bajaradilar. Masalan: samolyot, raketa, mashina, trolleybus va hokazo. Qog'ozni garmoshka usulida buklab qirqishga turli hil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan: bargli shoxcha, gullar, archa o'yinchoqlari. SHuningdek, dekorativ applikatsiya bo'yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek tayyor Syujetlarni zontik, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan: guldon, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo.

Dastlab tarbiyachi «predmetning yarmi» deb tushuntirish asosida bolalar usulni tushunib yetadilar. Bu guruhda bolalar qog'ozni qo'l bilan yirtib, mayda bo'lakchalardan foydalanib tasvirini hosil qilishga o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatib, mazmundor applikatsiya yaratishga, tayyorlov guruhga o'tgach ularning applikatsiya bo'limi ancha murakkablashadi. Ular qirqimning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullari-bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va Syujet qirqish hisoblanadi. Shu bilan bu guruh bolalarni turli xil shakllarda dekorativ naqsh to'zishga va bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga hamda mazmunli applikatsiya tuzishda predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar.

---

**Tayyorlov guruhida applikatsiyaqilishga o'rgatish.** Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni berish ko'zda tutiladi. Ular ko'cha, akvarium kabi mavzularda shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustrasiyalar bajarishlari mumkin.

---

Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhsida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqishlar to'zishda ularga turli razmer va rangdagi tayyor shakllar beriladi va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanish davom etadi.

Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni bajarish ko'zda tutilgan. Ular «Ko'cha», «Akvarium» kabi mavzularda, shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustrasiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda turli o'lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi. Va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanishi davom etiladi. Ikinchi kichik guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o'rgatishga ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarni diqqatini o'ziga tortib ularni chalg'itadi. SHuning uchun dastlab mashg'ulotlarda material alohida paketlarda tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lgandan so'ng material tarqatilib,

bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda qog'oz varag'ida terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib yig'ilganligini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga kley ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani ko'zatishi namuna bilan birgalikda olib borishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasining hamma guruhlarida ixtiyoriy applikasiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Lekin o'rta guruh bolalariga o'ylagan mazmunlari asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruhlarda o'zlari o'ylagan mazmunlari asosida qirqadilar. 6-7 yoshdagi bolalar oldindan qiladigan ishlari mazmunini eskizni oddiy qalam bilan chizib olishi, keyin esa shu eskizning detallarini applikasiya qilishlari mumkin.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki bolalar applikasiya qilish orqali shakllar talabalarning kvadrat, to'g'riburchak, uchburchak, aylana qog'oz bo'lagi va o'lchov asboblari haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydi. Ular badiiy didini o'stiradi, doira, kvadratda naqshlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarini chuqurlashtiradi. O'quvchilar ayrim predmetlarni detalma-detall tahlil qilib, geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar. Masalan, archa bir-biriga kiygizilgan uchburchakka o'xshaydi yoki yuk mashinasi turli o'lchamdagi to'g'ri burchaklardan, g'ildiragi aylanadan tashkil topganligini idrok etadilar. Bolalarda «Ko'p-kam», «Uzunasiga», «Ko'ndalangiga», «Ikki qismga qirqish», «Teng qismlarga» kabi tushunchalar mustahkamlanadi. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
3. SH.Nurmatova, SH.T.Xasanova, D.E.Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2010.
4. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot. Toshkent « ILM ZIYO » 2010 y.
5. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot. Toshkent « ILM ZIYO » 2011 y. II-nashr.
6. R.A.Mavlonova., Satbayeva M.T. O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot. Toshkent « ILM ZIYO » 2011 y. III-nashr



## YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA O‘QITUVCHINING O‘RNI

*Muxammedova Muharram Maxmudovna*

*Jondor pedagogika kolleji “Maktabgacha talim” kafedراسى.*

*Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni qanchalik e‘tiborga molik va muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Pedagogning kasbiy qobiliyatlari yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** pedagog, mutaxassis, kasb, ta’lim, tarbiya, bilim, malaka, ko’nikma, ma’rifat, barkamol

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi” deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, barkamol avlodni taybiyalash uchun o‘qituvchining roli kattadir. So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Respublikamizda bevosita tarbiya ishi bilan shug‘ullanishga da’vat etilgan muassasalar bilan birga turli kasb egalari ham bu muhim ishda qatnashadilar. Shunday ekan, inson tarbiyasi, uning qonuniyatlari haqidagi fan-pedagogikani o‘rganish unga aloqador bo‘lgan kishilarning muhim vazifasidir. Ma’lumki, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan, Tarbiya - o‘qituvchi va o‘quvchi (O‘qituvchi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning

ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'qituvchidagi O'qituvchilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «O'qituvchi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, O'qituvchining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak». Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham O'qituvchilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati; fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish; dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish olish qobiliyati;- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish; o'quvchilarning ijtimoiy kelib chikishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish. Tegishli ma'lumotli, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega deyiladi

Hozirgi zamon o'qituvchining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi - tabiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bolishi zarur. Bu pedagog -o'qituvchining obro'sini ko'taradi. O'qituvchi kasbga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o'qituvchipedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish - pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil



qiladi. O'qituvchining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyat pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. .

**Pedagog - tarbiyachi shaxsini shakllantirish.** Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlar tarbiyalaydi. Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi.

O'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan bo'lishi; Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

2. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

3. O'qituvchi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;
8. O'qituvchi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;
9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi;
10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qilabilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Pedagog - o'qituvchining nutq madaniyati .Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada uritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivoj faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq, Shu qobiliyat tufayli o'qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi o'qituvchining nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalarni pedagog-O'qituvchi unutmazligi kerak: millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.

4. Nutq madaniyati — bu, avvalo, o'qituvchilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni ifodali o'qiy olishi, radio va televideniye eshittirishlarini kuzatib borishi lozim,

6. Nutq madaniyatini egallashningyana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh o'qituvchilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz-murabbiylarning nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin. O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o'qituvchi bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadi, o'quvchilar bilan ongli muloqotni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi, avvalo, nutq sirlarini, uning o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda ta'sir kuchini puxta bilishi kerak.

Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Respublikamizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog xodimlar malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o'tishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Buning hammasi yangi O'zbekistonda o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi

### Xulosa

Pedagogik mahorat bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir. Eng muhimi - o'qituvchi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" – Toshkent: O'zbekiston, 2019 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. 2020 yil
4. O. Xasanboyeva. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". Toshkent. "ILM-ZIYO" Qo'llanma-2011
5. Ozbekiston Respublikasining" Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari "Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli qarori.
6. "ILK QADAM" MTMning Davlat o'quv dasturi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4- sonli qarori.
7. A. Zununov. Pedagogika tarixi. Darslik- 2002.
8. Babanskiy YU.K va boshqalar."Pedagogika", Moskva1998;
9. V.I.Turchenko. Doshkolnaya pedagogika Moskva 2013



10. S.A. Kozlova.T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. Moskva 2000
11. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. T- 2010
12. Bolaga yonaltirilgan ta'lim dasturini tashkil etish. O'zRXTB. MMXQTMORO'MM.2012
13. Pfn. F.Vaxobova, Sh.B.Nabixanova,D.T Karimova "Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari" pedagogika kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma.Toshkent-2015
14. O'zR XTBning" Maktab ta'limini rivojlantirish" loyihasi doirasida tarbiyachilarni o'qitish uchun yaratilgan qo'llanma.T.2010.
15. G'aybullaev. N Pedagogika. Ma'ruzalar matni.
16. "Ilk iqtisodiy ta'lim saboqlaridastur va uslubiy qo'llanma. Toshkent 2004
- 17.N.Yusupova. Musiqa savodi metodikasi va ritmika.Qollanma-2010.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALARNING FAOLIYATI VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR

*Ortiqova Gulshan Toshpo'latovna*

*Buxoro pedagogika kolleji*

*"Badiiy ijodiy faoliyat" o'quv amaliyoti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida bolalarning faoliyati va uning ahamiyati, qanchalik e'tiborga molik va muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tematik vazifa, reja, didaktik material, o'yin uskuna, qurilish, syujetli o'yinlar, til, nutq, san'at, ritmika.

**Annotation:** In this article, the development of development centers in pre-school educational organizations is given information about how significant and important it is.

**Keywords:** thematic task, plan, didactic material, game equipment, construction, plot games, language, speech, art.

**Аннотация:** В данной статье развитию центров развития в дошкольных образовательных организациях дана информация о том, насколько оно значимо и важно.

**Ключевые слова:** тематическое задание, план, дидактический материал, игровой инвентарь, построение, сюжетные игры, язык, речь, искусство.

Faoliyat markazlari va o'yin burchaklari maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yilgan Davlat talablari, "Ilk qadam" davlat dasturi mavzulariga mos ravishda quyidagi talablar bo'yicha jihozlanadi hamda tegishli qoidalarga amal qilinadi: - bolaning sog'lig'ini qo'llab-quvvatlashga: toza havо (xonalarni shamollatish jadvali, bola xonada bo'lganda yelvizak bo'lmasligi), toza joy (sanitariya talablari asosida) va issiq xona, yorug'likning (bolaning chap tomonidan) yetarli bo'lishi; - harakat, tajriba va kashf qilishga rag'bat ko'rsatish: markazda bola faoliyati uchun xavfsizlikning ta'minlanishi, kerakli jihozlarning yetarli bo'lishi, sanitariya va gigienik talablarga javob berishi; - guruhdagi jihozlarning holati: barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan darajada bo'lishi, kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda joylashtirish, iloji boricha juda ko'p narsalarni bitta joyga ilib qo'yimaslik, bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo'lishi hamda tarbiyachi uchun ham qulay bo'lishi;- bolalar o'rtasida hamkorlik: bolalar hamkorligi va muloqotiga rag'bat bildirish, kichik guruhlarga bo'linib, juft bo'lib

ishlashlari, o'yinlar o'ynashlariga yetarli sharoit yaratilishi, o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishlariga yordam berish;- xonani markazlar hududlariga bo'lganda: o'yinchoqlar, konstrukstiyalar, belgilar, raqamlar va x.k.lar bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bo'lishi;

- bolalar mebellarining joylashuvi: bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'sqinlik qilmaydigan, bola o'ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira olishi;

- bolalarning idrok qilishi: bolada idrok etish qobiliyatini rivojlantiruvchi va ijod qilishga undovchi turli shakl va rangdagi materiallar bo'lishi, tegishlilik, xavfsizlik va erkinlik hissining shakllantirilishi, bolaga erkin tinglash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qilishga undash, turli madaniyatlar mavjudligini his qildirish;- ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti: tomonlar o'rtasida iliq munosabatni shakllantiruvchi muloqotni o'rnatuvchi muhitni yaratish;

- bolalar faoliyatida ishlatilayotgan xavfsizlantirish yoki ulardan voz kechish).

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1. "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi. 2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 6 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. **Til va nutq markazi.** (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)
3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)
4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidal o'yinlar)



5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

6. Misiqa va ritmika markazi

**Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida** turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'plarsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini

rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni haletish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin.

**2.Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida** bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynashga xoxish-istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar soir bo'layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

**3.Til va nutq markazida** kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi

yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o'ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

**4.Ilm-fan va tabiat markazida** boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning

tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko‘chadan topilgan narsalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun foydalaniladi.

**Аннотация:** Ушбу мақолада юридик терминларнинг таржима килиш усуллари бўлмиш транскрипция, транслитерация усулларидан фойдаланиш мисоллари билан ёритилиб берилган. Таржима жараёнидаги сўзлардаги харфлар ўзгариши ва уларни тиллар кесимида таснифланган.

**Калит сўзлар:** транскрипция, транслитерация, термин, тил

Таржима жараёнида аслият тили ҳоҳ ўзбек, ҳоҳ инглиз ёки бошқа тил бўлсин, асл шаклда бериб, жорий бирликка изоҳловчи ҳавола (сноска) ёрдамида ифодалаш орқали тўлиқ баённи тақдим этиш терминни тўлалигича ёритиб беради. Таржима жараёнида *умуман мос келмаслик* ҳодисаси бир нечта усулларни таржимонларга ҳавола этади. Мазкур усуллар муайян соҳа таркибида таржима жараёнлари механизмини енгиллаштиришга хизмат қилади. Таҳлилларимиз асосида юридик соҳасига оид терминлар таржимасида лексик жиҳатдан қуйидаги усуллар кўпроқ кузатилади:

- 1) транскрипция;
- 2) транслитерация;

**Таржима транскрипцияси** жараёни бу тилнинг фонемаларидан фойдаланган ҳолда асл лексик бирликнинг расмий фонемик ўзлаштириш, асл сўзга фонетик тақлиддир. Мазкур жараён соҳа терминлари таркибида ҳам кўплаб кузатилади. Манбалар асосида қуйидаги маълумотларни топдик. Мазкур лексик бирлик латинча “transcriptio” - *кўчириб ёзиш*, деган маънони англатади. Вазифасига кўра, ёзувнинг нутқ товушлари талаффузини аниқ ифодалаш учун ишлатиладиган сунъий (шартли) тури; нутқ бўлаклари (товуш, бўғин, сўз)нинг фонетик ифодаларини ёзувда аниқ акс эттириш усули. Транскрипция лингвистик функциясига кўра икки турга бўлинади: илмий ва амалий транскрипция. Муайян миллий алифбо воситалари орқали бошқа тиллардаги атоқли отлар, терминлар, махсус номлар ва шу каби таржима қилинмайдиган сўзларни амалий транскрипция орқали акс эттирилади ва шу йўл билан уларни қабул қилувчи тилнинг босма матнларига киритилади. Амалий транскрипцияга қўйиладиган асосий талаблардан бири қабул қилинаётган лексик бирликнинг талаффузини, мофемик тузилишини, график хусусиятларини имкон қадар аниқ сақлаб қолиш

ва шу орқали бирликнинг бошқа тилда осон ўзлашишини таъминлашидир<sup>1</sup>. Мисол учун, *jury* - *жюри* (гувоҳларни тингловчи махсус гуруҳ, танланган ҳакамлар ҳайъати); *archive* - *архив* (маълумотлар тўплами турадиган жой); *addressee* - *адресат* (расмий мурожаат қилинган шахс, манзил); *accept* - *акцепт* (оферта юборилган шахснинг уни қабул қилганлиги ҳақидаги жавоби); *parliament* - *парламент* (олий қонун чиқарувчи орган); *speaker* - *спикер* (парламент қўйи палатаси раиси); *clearing* - *клиринг* (ҳисоб китоб қилиш); *consulting* - *консалтинг* (мутахассис томонидан юридик маслаҳат); *courier* - *курьер* (хат ташувчи ҳодим); *apostille* - *апостиль* (ҳужжатларга қўйиладиган махсус юридик штамп).

Транскрипцияга доир бу каби мисолларни расмий матнларда, оммавий ахборот воситалари материалларида ҳам учратишимиз мумкин. Жумладан, Наманган вилояти ИИБ томонидан 2021 йил 17 апрельда чоп этилган мақоласи қўйидагича номланган: “*Шантаж* йўли билан 20 миллион сўмга эга бўлмақчи бўлган шахслар ИИБ ходимлари томонидан тузоққа туширилди”.<sup>2</sup> Келтирилган мисолда, *шантаж* (жиноятчи ёки товламачлар томонидан маълум мақсад йўлида махфий маълумотларни ошкор этиш орқали кўрқитиш) - *chantage* терминининг транскрипциясидир.

**Инглиз тили:** *Following new requirements, modernization of the Codes on criminal, administration violations, civil and arbitrage court* (Cambridge English Corpus) - **тарж:** *Янги талаблардан келиб чиқиб, жиноят, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги, фуқаролик ва ҳакамлик судлари тўғрисидаги кодексларни модернизация қилиш.*

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, таржима жараёнида транскрипция усули орқали ўтган лексик бирликлар товуш ўзгариш қонуниятига бўйсунди. Масалан, италян тилидаги *bancarotta* термини инглиз тилига таржима қилинганда, *ассимиляция* – товушларнинг ўхшашидан фойдаланиш ҳодисаси (*o* → *u*), *эпендеза* – таркибда йўқ товушларнинг орттирилиши (*p* нинг ортиши) ва *диаре́за* – товушларнинг тушириб қолдириш ҳодисалари кузатилади (*a, t, a* товушларининг тушириб қолиши). Хусусан, *bancarotta* – *bankrupt* (юридик мажбуриятини тўла ҳажмда бажаришга қодир бўлмаган шахс ёки ташкилот). Ўзбек тилига таржимасида эса, *bancarotta* - *банкрот* термин таркибда мавжуд *a, t, a* товушларининг тушиб қолиши орқали, фақат *диаре́за* ҳодисаси кузатилади. Таржима транскрипциясидан фойдаланиш жараёнда товушларнинг микрокатегориал ўзгариш мазмунга таъсир этмайди, бироқ лисоний ҳодиса сифатида тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ.

<sup>1</sup> Суперанская А. В., Теоретические основы практической транскрипции, М., 1978.

<sup>2</sup> <https://namviib.uz>

Таржимада транслитерация жараёни бу аслиятдаги терминнинг график структурасини ҳарфма-ҳарф ўзлаштириб қўллаш жараёнидир. Масалан, *congress* - *конгресс* (А.Қ.Ш.нинг миллий қонун чиқарувчи органи); *reglament* - *регламент* (муайян тартиб қойида); *codex* - *кодекс* (қонунлар тўплами); *tribunal* - *трибунал* (ҳарбий ёки дала суди; айрим хорижий мамлакатларда конституциявий назоратни амалга оширувчи орган); *contract* - *контракт* (юримдик битим, келишув); *monitoring* - *мониторинг* (сўровнома, таҳлиллар асосида назорат қилиш).

Собиқ шўролар даврида рус тили орқали ва рус тилининг ўзидан ҳам юримдик соҳасига бир қанча лексик бирликлар соҳа лексик қатламига транслитерация ва транскрипция жараёни орқали таржима қилиниб келинган, жумладан, *распрата* – *распрата* (қонунга хилоф равишда ўзганинг мулкини сотиш, сарфлаш, истеъмол қилиш, ҳадя қилиш ва бошқа йўллар билан бегоналаштириш).

4) *Номутаносиб лексик мувофиқлик* бир қарашда ғализ туюлсада бу таржимада бу каби терминлар мавжуд. Ушбу бирликлар умумистеъмол сўзлари таркибида қўлланилганда одатий таржимага эга, соҳа таркибида термин бўлиб қўлланилганда эса бошқа маъно берувчи бирликлар. Соҳага доир шундай сўзлардан бири *punishment* бўлиб, унинг *жазо* маъносида таржима қиламиз. Мисол учун, **инглиз тили:** *Everybody eventually gets his reward or punishment* - **тарж.:** *ҳар бир инсон охир - оқибат ўз мукофотини ёки жазосини олади*. Термин сифатида *punishment* – *жамғарма* маъносида ҳам таржима қилинади. Бироқ бу иқтисод соҳасига тааллуқли термин ҳисобланади.

Бугунги кунда соҳага оид адабиёт, ҳужжат ва кодексларда ёхуд луғатлардагина эмас, балки аждодларимиз томонидан ёзилган илмий, тарихий ва бадий асарларнинг чет тиллар, хусусан, инглиз тилига ўгирилган нусхаларида ҳам соҳа терминларини учратиш мумкин. Афсуски, таржима амалиётида фойдаланиш учун юримдик соҳасига оид терминларнинг лексик-семантик, функционал-структура хусусиятларини қамраб олувчи икки тилли (инглизча - ўзбекча, ўзбекча - инглизча) мукамал луғатлар ҳанузгача яратилган эмас.

**Хулоса.** Гарчи расмий бўлмасида, ўзбек тилида маданий ва урф-одатга доир юримдик терминлар инглиз тилига нисбатан салмоқлидир. Уларни бошқа тилга таржима қилиш жараёнида семантик жиҳатдан ёндашиш талаб этилади. Қолаверса, терминнинг ифода билан берилиши таржима адекватлигини таъминлайди.

Таржима жараёнида алият тилидан таржима тилига транскрипция, транслитерация усули орқали ўтган лексик бирликлар ассимиляция, эпендеза, диарепа, гапология каби турли товуш ўзгариш қонуниятига бўйсунди. Транскрипция ва транслитерация жараёнида бу каби микрокатегориал товуш



ўзгариши терминнинг мазмунга таъсир этмайди, бироқ лисоний ҳодиса сифатида тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Суперанская А. В., Теоретические основы практической транскрипции, 1978.
2. Байт ал-ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти, Ўзбекистон НМИУ. -Т.: 2010. - Б 264.
3. Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштира тадқиқи: Филол. фан. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 12 б.
4. Бобоёров М. Ҳ. Мустақиллик даври жисмоний тарбия ва спорт атамаларининг шаклланиши: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. –

## XOTIRA PSIXOLOGIYASI.PATOLOGIK XOTIRA

*Ajiniyoz nomidagi NukusDPI Pedagogika fakulteti  
3-bosqich talabalari*

*Munisa Aybek qizi Ibaydayeva*

*Nilufar Rustam qizi Do'sjonova*

*O'razgul Jangabaevna Yeshmuratova*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

*Gulbanu Amangeldi qizi Turganbaeva*

**Annotatsiya:** Maqolada xotira jarayonlari,xotiraning xususiyatlari,patologik xotira hamda uning tiklanishi,xotirani mustahkamlash mashqlari haqida qisqacha so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xotira psixologiyasi, patologik xotira, xotira tezligi, xotiraning o'chishi, xotira

*Fikrlash kishi ruhini tetiklashtiradi.*

*Gippokrat*

O'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalarni, tajribani eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi ruhiy jarayonlarga xotira deb aytiladi.Ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash saqlab qolish va keyinchalik tiklashdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatga xotira deyiladi.Har kimning o'ziga xos xotira xususiyatlari bor.Har kimning xotirasidagi farq xotiraning kuchida ifodalanadi.Xotirasi kuchli va xotirasi zaif odamlar bor.Xotiraning kuchli-kuchsiz bo'lishi esda olib qolish va esdan chiqarish tezlik darajasiga qarab belgilanadi.Tez esga olib sekin bora-bora unutish xotiraning xarakterli xususiyati bo'lsa sekin esda olib qolish va esdan chiqarib qo'yish kuchsiz xotira belgilaridandir.Xotiraning uchta asosiy funksiyasi farq qilinadi: eslab qolish (esda olib qolish), esda saqlash va esga tushirish. Shuningdek, unutish ham xotira jarayonlaridan biri hisoblanadi. Eslab qolishda izlar orasidagi muvaqqat aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muvaqqat aloqalar yoki assotsiatsiyalar shartli refleksning bir turi hisoblanadi. Masalan, bolaga uning uchun notanish bo'lgan narsa, deylik choynak, birinchi bor ko'rsatilsa, uning nomini bola aytib bera olmaydi. Lekin u avval choynakning tuzilishi haqida eshitgan bo'lsa, bu ma'lumot miyada xotira izlari sifatida saqlanib qoladi va unga ko'rsatilgan choynakning nomini aytib bera oladi. Chunki ko'rish obrazi va «choynak» so'zidan paydo bo'lgan miyadagi izlar orasida shartli reflektor bog'lanishlar, ya'ni assotsiatsiyalar paydo bo'ladi va buning natijasida buyumning nomi xotirada qayta tiklanadi. Demak, xotira jarayonida assotsiatsiyalarning roli juda kattadir. Assotsiatsiya so'zi lotinchada "associo"

birlashtirish, bog‘ash degan ma’noni anglatadi. Esda olib qolish muddatiga qarab qisqa va uzoq muddatli xotira farq qilinadi. Har qanday axborot avvaliga qisqa muddatli xotira sifatida saqlanadi. Agar miya tuzilmalarida ma’lumot zarurligi to‘g‘risida «qaror» qabul qilinsa, u uzoq muddatli xotiraga aylanadi. Aks holda, qisqa muddatli xotiraligicha qolaveradi, ya’ni axborot miyadan o‘chirib yuboriladi. Qisqa muddatli xotirada axborot 20 soniya atrofida saqlanadi. Qisqa muddatli xotiraning uzoq muddatli xotiraga o‘tishi axborotning naqadar zarurligiga ham bog‘liq. Masalan, biz telefon raqamlari bitilgan kitobga qarab, o‘zimizga kerak bo‘lgan telefon raqamini topamiz va shu raqamni teramiz. Agar bu raqam javob bermasa yoki bir marta gaplashilib, keyin o‘sha raqamga qaytishning zarurati bo‘lmasa, biz bu raqamni uzoq muddat xotiramizda saqlab qololmaymiz. Keyinchalik bu raqamni eslash uchun yana telefon kitobini varaqlashga to‘g‘ri keladi. Mabodo, odam ushbu telefon raqamini uzoq vaqtga eslab qolsa, demak, shu raqam bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumot o‘sha odamda qiziqish uyg‘otdi va bu raqam uzoq muddatli xotiraga aylandi. Nemis psixologi Ebbingauz tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, qisqa muddatli xotiraning hajmi 7 ta elementga teng ekan. Agar odam 7 raqam dan ortiq bo‘lgan qandaydir sonni eslab qolmoqchi bo‘lsa, ushbu sonni ikkita-uchta raqamlarga bo‘lib tashlaydi. Mabodo talaba o‘quv materialini yaxshi eslab qolishni xohlasa, u ushbu materialni mazmun jihatdan bo‘laklarga (qismlarga) ajratib o‘zlashtirishi kerak. Ba’zi odamlarning raqamlarga xotirasi kuchli bo‘lsa, ba’zilarniki so‘zlarga kuchli bo‘ladi. Qisqa muddatli xotirada material esda qolishi uchun uning hajmi uncha katta bo‘lmasligi kerak. Masalan, reklamada bu qoidaga juda amal qilishadi, psixologiyada reklama psixologiyasi degan alohida soha bo‘lib bu sohada mijozlarning ya’ni xaridorlarning umumiy psixikasi o‘rganiladi, shuning uchun ham reklamalarda uzundan-uzun matnlar uchramaydi. Inson xotirasida so‘zlar faqat shovqin tusida qoladi, urg‘uli so‘zlar esa xotirada asosiy axborot bo‘lib saqlanib qoladi. Muayyan bir joyda muayyan bir inson bilan bog‘liq bo‘lgan xotiralar inson miyasida o‘chmas iz qoldiradi. Bunday xotiralar ham vaqt o‘tishi bilan xiralashadi, uzoq muddatdan keyin esa miyadan butunlay o‘chadi, ba’zi hollarda buning aksi bo‘lishi ham mumkin.

Bundan tashqari shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, uzundan-uzoq gapiruvchi notiqalar, ko‘pincha, jummalarni grammatik jihatdan noto‘g‘ri talaffuz qilishadi, ya’ni jumla boshlanishi uning oxiriga mos kelmaydi, chunki ana shu jumlaning talaffuz etish paytida odam jumlaning boshlanishini unutib qo‘yadi. Shu boisdan so‘zning ta’sirchanigini oshirish hamda tinglovchining qiziqishini tezda so‘ndirib qo‘ymaslik uchun nutqdagi so‘zlar, qisqa, ravon tilda dona-dona qilib aytilishi kerak. Esda qolish xotiraning birinchi bosqichidir. Esda qolish ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo‘ladi. Kundalik kuzatuvlar va maxsus tajribalarning ko‘rsatishicha, axborotning zarurligini anglagan odamlarda esda qolish durustroq bo‘ladi. Materialni tushunib olish esda qolish uchun yanada katta ahamiyat kasb etadi. Tushunarsiz yoki yaxshi tushunilmagan materialni esda



qolish mushkulroq va aksincha, aniq misollar bilan keltirilgan materialni puxta egallash va eslab qolish oson bo'ladi. Masalan, kerakli materialni odam keraksiz materialga qaraganda 9 marotaba yaxshiroq eslab qolar ekan. O'qitish jarayonida o'quvchilar diqqati o'rgatilayotgan materialga dalillar bilan qaratilsa, eslab qolish yanada yaxshiroq bo'ladi. Bu usuldan, ayniqsa, nazariy ilmlarni o'qitishda unumli foydalanish mumkin. Eslab qolish o'rganilayotgan narsaning naqadar qiziqarli yoki zarurligiga ham bog'liq. Masalan maktab o'quvchilariga uy vazifasi berishda shuni alohida e'tiborga olish kerakki, o'quvchilar diqqati boshqa katta yoshdagi talabalarnikiga qaraganda sustroq hamda tarqoqroq bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda uy vazifasini berishda uy vazifasini yaxshilab tushuntirib rasmlar yordamida ko'rsatib keyin topshiriq sifatida berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kitoblar ham kishi xotirasiga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Qiziqarli yoki qiziqarsiz kitobni o'qib bunga iqrar bo'lish mumkin. Shuningdek, odamda muayyan his-tuyg'ularga sabab bo'ladigan voqealar osonroq esda qolishini yuqorida aytib o'tgan edik. Juda ham kuchli hayajonga keltiruvchi voqealar esa, ko'pincha, butun umr esda saqlanib qoladi. Ma'lumki, eslab qolish turli xil analizatorlar orqali amalga oshiriladi. Materialni idrok etishda qatnashuvchi retseptorlar va analizatorlar nechog'lik ko'p bo'lsa, eslab qolish shunchalik soz bo'ladi. Haqiqatan ham, qandaydir tibbiy moslamaning tuzilishini va ishlash uslubini yaxshi eslab qolish uchun u haqida eshitish (eshituv analizatorlari) chizmalar va modellarni ko'rib chiqish (ko'ruv analizatorlari), uning qismlarini yig'ish va ajratish (kinestetik sezgi) ishtirok etish kerak. Maktablarda ko'rgazmali o'qitish maqsadi ham ana shu mexanizmlarga asoslangan bo'ladi. Konspekt yozishni to'g'ri tashkil etish eslab qolishning muhim shartlaridan biridir. Faqat to'g'ri yozilgan konspekt matni yaxshi eslab qolinadi. Ko'pchilik talabalar orasida "o'qisam ham miyamga kirmaydi" degan noto'g'ru fikrlar yuradi. Har qanday ma'lumotni xotiraga kiritish uchun diqqatni bir yerga jamlash yaxshi effekt beradi. Bundan tashqari ma'lumotni xotirada saqlab qolish odamning individual psixologik xususiyatlariga ham bog'liq. Konspekt yozganda kitobdan matnni anglamasdan turib daftarga qisqartirgan holda ko'chirib qo'yish, materialni eslab qolishda qiyinchilik tug'diradi. Kitobdagi materialni xotirada olib qolish uchun uni bir yoki bir necha marta o'qib chiqish o'ta foydalidir. Materialni yaxshi tushunib olgandan keyin konspekt qilinsa, uning mazmuni yaxshi eslab qolinadi va xotirada uzoq saqlanadi. Materialni qayta-qayta o'qish ham uni esda olib qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Materialni qayta-qayta o'qish orasidagi vaqt materialni o'zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tajriba paytida sinaluvchilardan matnni to'la eslab qolishi uchun har yarim soatda, har ikki soatda va bir kunda bir marta qayta o'qish talab qilingan. Aniqlanishicha, matnni har yarim soatda qayta o'qishda uni esda olib qolish uchun 11 marta takrorlash, orada ikki soat tanaffus qilib o'qilsa 7 marta, kuniga faqat bir marta o'qilsa, atigi 4 marta takrorlash kerak bo'lar ekan. Bundan xulosa shuki,

matnni esda yaxshi olib qolish uchun takrorlash orasidagi vaqt uzoqroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda o'qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi eslab qolish ustida ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. Ko'pgina tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, obrazli xotirada eslab qolingani materialni tushunish nisbatan osonroq bo'ladi. Buning uchun o'quv maskanlarida, ayniqsa, institut va universitetlarda yangi pedagogik texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Bu yerda Konfutsiyning quyidagi so'zlarini keltirish ta'birga joizdir: «Men eshitaman-u, unutib qo'yaman, men ko'raman-u, eslab qolaman, men ishlab bajaraman-u, tushunib olaman!». Bu so'zlarni ilmiy tahlil qiladigan bo'lsak, bu faylasufning naqadar haq ekanligiga iqror bo'lamiz. Chunki, birinchi holatda, ya'ni eshitganda miyaga axborot faqat eshituv analizatorlari orqali uzatiladi. Eshituv bilan bog'liq bo'lgan xotira esa odamda juda sust rivojlangan. Undan birmuncha yaxshi rivojlangan xotira bu ko'ruv xotirasidir. Lekin biror-bir material ustida faol ishlansa, ya'ni o'quvchi o'qisa, boshqa o'quvchi bilan munozara qilsa, o'z qo'li bilan matnda berilgan ma'lumotlar ustida ishlasa va turli xil «o'yin» mashg'ulotlarini o'tkazsa, material uzoq vaqt esda saqlanib qoladi. Bundan tashqari maktab, litsey, kasbga tayyorlovchi texnikumlarda o'qituvchilardan talab qilinadigan asosiy narsa o'quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda dars o'tish tavsiya etiladi. Shu yerda maktab va institutlarda keng joriy qilingan test imtihonlari haqida to'xtalib o'tish zarur. Test savollarini yodlash talaba uchun, ko'pincha, qisqa muddatli xotira sifatida o'tib ketadi. Test javoblarining miyada qisqa fursatda saqlanib qolishining asl sababi uning imtihon o'tgandan keyin miyadan o'chirilishidir. Agar test savollariga mantiqan yondashilsa va har bir savol ustida talaba fikran ishlasa, uning javobi uzoq muddat esda qoladi. Shunday qilib, xotira murakkab funksional sistema sifatida ko'rilishi kerak. Xotirada ikkinchi darajali narsa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qolingani narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Kodlanish jarayoni qisqa muddatli xotiraning uzoq muddatli xotiraga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xotirada axborot ko'proq optik tasvirlar holida yaxshi saqlanadi, chunki aksariyat odamlarda ko'rish analizatori dunyoni idrok etishning yetakchi tizimi hisoblanadi. Shu bois eslab qolish usullaridan biri xotira turlarining birgalikda bo'lishidir. Ko'rish, eshitish, ta'm bilish, taktil ta'sirotlar bilan bog'liq xotira shular sirasiga kiradi. Xotira jarayonlari odam uchun hamma vaqt muhim bo'lgan. Xotira qadim zamonlardan buyon olimu fuzalolarni qiziqtirib kelgan. Greklar xotirani mustahkamlash uchun mnemonika xudosiga sig'inishgan. Barcha insonlar kuchli xotiraga ega bo'lishni orzu qilishgan. Ko'pchilik olimlarning xotirasi kuchli bo'ladi deyishadi. Bu hamma vaqt ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi. Ba'zi olimlar olamshumul kashfiyotlar qilishsa-da, xotirasi o'ta yomon bo'lgan. Masalan, Ch. Darvin xotirasida jiddiy kamchiliklar bo'lgan. Shunday bir voqea tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan: 50 yoshdan oshgan Ch. Darvin o'zining xizmatkoriga o'zi yozgan «Turlarning kelib chiqishi haqida»gi



asarini o 'qishni buyuradi. Ch.Darvin tinglashga berilib ketib shunday degan: «Qiziq,qiziq, buni qaranga, juda durust, bu asarni kim yozgan ekan-a», deb yuborgan. CH.Darvinda xotira hamma vaqt ham zaif bo'lgan, lekin uning alloma bo'lib yetishishiga bu xalaqit bermagan. Shu bilan bir vaqtda aqlan zaif,lekin xotirasi kuchli odamlar ham bo'ladi, ammo, bunday xotira mantiqiy emas, ko'proq mexanik xotira hisoblanadi.Xotira patologiyasi organizmda kechadigan turli xil kasalliklar xotira buzilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, asab sistemasining kasalliklarida va ruhiy xastaliklarda xotiraning buzilishi ko'p kuzatiladi. Serebral ateroskleroz, Alsgeymer kasalligi, toksik ensefalopatiyalar,surunkali alkogolizm, xurujlar bilan kechuvchi gipertoniya kasalligi va bir qator degenerativ kasalliklarda xotira buzilishlari ko'p kuzatiladi. Umuman olganda, bosh miyadagi integrativ jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi har qanday kasallik xotiraning buzilishiga olib kelishi mumkin.Bunda, ayniqsa, eslab qolish keskin pasayadi.Xotira buzilishlari ichida konfabulatsiyalar (soxta xotiralar) alohida o'rin tutadi. Bunda bemor o'zi kechirmagan voqealarni real shaxsiy hayotda kechirgandek eslaydi, masalan, boshqa odamlarning tajribasini. Bu holat peshona sohasi zararlenganda va og'ir ruhiy kasalliklarda ko'p uchraydi. Quyidagi misol bunga yaqqol dalil bo'la oladi.Bosh miyaning oldingi arteriyasi sohasiga qon quyilgan bemorda konfabulatsiyaning yaqqol belgilari namoyon bo'ladi. Bemordan kecha nimalar qildingiz deb so'ralganda, u shunday deb javob beradi: «Men kecha doktorga bordim, u yerda menga ukollar qilishdi,keyin bitta tanishimnikida mehmon bo'ldim, u meni uyga olib kelib qo'ydi va hokazo». Aslida esa bemor uyidan hech qayoqqa chiqmagan,chunki kasalligi sababli chiqa olmaydi ham. U bemor yana yemagan ovqatini yedim deydi yoki yegan bo'lsa-da, yana ovqat olib keling deb so'raydi va to'yganini bilmaydi.Xotira buzilishining eng ko'p uchraydigan turi — bu amneziyadir.Xotiraning yo'qolishiga amneziya deyiladi. Uning quyidagi turlari bo'ladi. Anterograd amneziya — bemor kasallik rivojlangan paytdan boshlab, hech nimani eslay olmaydi. Retrograd amneziya — bemor kasallikdan oldin bo'lgan ham voqealarni unutib qo'yadi.Chunonchi, bemor avtomashina halokatida kalla suyagi shikastlanganidan halokat haqida ham, unga sabab bo'lgan safar to 'g'risida ham hech nimani eslay olmaydi. U o'z turar joyini, qayerda ishlashini va kasbini ham unutib yuboradi. U uylanganini esda tutgan bo'lsada, lekin xotini kimligini, bolalarining nechtaligini va ularning ismlarini aytib bera olmaydi.Bemor o'tgan hayotiga bog'liq ma'noli ma'lumotlarni keltirishda juda qiynaladi. Halokatdan keyin biroz vaqt o'tgach, yuz bergan voqealarni birin-ketin eslay boshlaydi. Qattiq bosh miya jarohatidan keyin xotirasi umuman yo'qolganlar ham bo'ladi. Bunday paytlarda xotirani gipnoz yo'li bilan qayta tiklash mumkin.Retrograd amneziyaga uchragan bemorlar «o'tmishsiz odamlar»dir. Bu mavzu badiiy adabiyotlarda va kinofilmlarda o'z aksini topgan. Retrograd va anterograd amneziyalarning birgalikda kuzatilishiga anteroretrograd amneziya deb ataladi. Xotiraning patologik tarzda kuchayishiga giperamneziya deyiladi



va bu holat asosan ruhiy kasalliklarda, ayniqsa, shizofreniya kasalida ko'p uchraydi. Xotira buzilishining yana bir turi bu psevdoreminissensiyadir. Bunda bemor xotirasidagi axborotning unutilgan joyini oldin bo'lib o'tgan hodisalar bilan to'ldiradi. Masalan, shifoxonada bir necha kundan beri davolanayotgan bemor men kecha konsertga tushdim deydi. Haqiqatan ham bemor konsertga tushgan, lekin boshqa vaqt. Psevdoreminissensiya ham soxta xotiradir. Ba'zan ruhiy sog'lom kishilarda ham xuddi shunga o'xshash voqealar ro'y berib turadi, ya'ni odamning o'ngidagi kechinmalar va tushida ko'rgan voqealar orasida aniq-ravshan chegara o'chib ketadi. Bunda tushdagi voqealar haqiqatda ro'y bergan voqeadek, odam ongida to'laligicha yoki qisman singib qoladi yoki real voqealar tushda ko'rgandek tuyuladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Z.Ibodullayev "Tibbiyot psixologiyasi" TOSHKENT "IQTISOD-MOLIYA"2008
2. Y.M.Fayziyev, E.H Eshboyev "Umumiy va tibbiy psixologiya" Toshkent "ILM-ZIYO" 2012

## BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINI ODOB-AXLOQ RUHIDA TARBIYALASHDA O`QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH

*Pirjanova Asemay, Mambetova Gulnur, Jadigerova Kamilla*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 2-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining odob-axloq ruhida tarbiyalashda o`qituvchining ta`lim-tarbiya jarayonidagi ma`suliyati, ilk maktab ostonasiga qadam qo`ygan bolaga nisbatan amalga oshirishi lozim bo`lgan vazifalari va bunda boshlang`ich sinf o`qituvchisining pedagogik mahoratining ahamiyati haqida to`xtab o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim, tarbiya, kasb, mahorat, tekshirish, tajriba, diagnostika, talab, iste`dod, suhbat, kuzatish, madaniyat, ma`suliyat.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020- yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida shu yurtning fuqarolarining salomatligi ta`lim va farovonligi haqida katta dolzarb masalalarni ko`tarib chiqdi. Bunda O`zbekiston xalqini turmush sharoitini tubdan o`zgartirish, yaxshilash, hammabop va sifatli ta`limni rivojlantirish yo`lida katta tadbirlarni amalga oshirish ko`zda tutilgan. Jumladan, Prezident o`z ma`ruzasida: “O`zbekiston Respublikasining yoshlarni tarbiyalashda oldinga qo`yayotgan asosiy maqsadlardan biri – Biz o`z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug` maqsadni qo`ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug`beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”-deya alohida ta`kidlab o`tdi. Bunda, avvalo, ta`lim va tarbiyani rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g`oyamizning asosiy ustunlari bo`lib xizmat qilishi lozimligi aytib o`tildi. Mana shunday shaxsni tarbiyalashda –boshlang`ich ta`limda faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchidan alohida katta kuch, mahorat, sabr matonat talab etadi.[1.3]

“Pedagogik mahorat nima?” degan savolga rus pedagogi K.D.Uchinskiy so`zlari bilan aytganda, o`qituvchi qanday o`qitish kerakligini bilishi va buni nazariy jihatdanligiga emas, balki amaliy jihatdan ham bilishi lozim. O`qituvchining pedagogik mahorati, asosan darsda ko`rinadi. Chunki, dars o`zining mazmun, mohiyatiga ko`ra o`qituvchining maktabdagi eng asosiy, birinchi o`rinda tutgan ishidir”. [3.38]

Mamlakatimizda ta`lim jarayonida yuz berayotgan tub o`zgarishlar har bir ta`lim sohasining jadallashtirishni talab etadi, yangiliklarni joriy etish yo`li esa har doim murakkab va uzoqdir. Yosh avlodni ma`naviy- axloqiy tarbiyasini

shakllantirishda milliy umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bugungi xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga odob-axloqqa doir g'oyalarni o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan boshlanadi"- deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruxiy va ma'naviy jarayonining mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari daraasiga olib chiqish ta'limni ilg'or darajalar asosida boyitib borish yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir.

Darhaqiqat, ertangi kun bugungi kundan boshlanadi. Mamlakatimiz kelajagi-bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizda ularning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishiga bog'liq. Bugungi davrda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yilgan talab ham har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun u o'quvchilar va o'quvchilar jamoasini puxta o'rganishni asosan ikki yo'l bilan amalga oshirishi lozim bo'ladi. Birinchidan tomon, umumpsixologik jarayonlar nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan muayyan aniq o'quv tarbiya jarayoni tashkil etishidir.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ish tajribasiga tayangan holda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini o'rganib, ular to'g'risidagi olgan ma'lumotlarini to'plab ularni sistemalashtirib boradi.

Bunda o'qituvchi bir qancha metodlarni qo'llashi mumkin:

1. Tekshirish metodi

1. Eksperimental bo'lmagan metodlar:

a) kuzatish;      b) suhbat;      v) anketa tarqatish;      g) o'quvchilar

faoliyatini natijalarini tahlil qilish;

2. Tajriba metodi

a) axloqiy masalalarni hal qiluvchi go'zallik, xususiyatlarini kerakli axborotni eslab qolish;

b) pedagogik va psixologik tajribalar.

**3. Diagnostika metodi.**

a) bilim sifatini aniqlaydigan metod;

b) aralash metod;

O'quvchining tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadigan diagnostik dastur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarni yosh xususiyatlarini o'rganib diagnostik namunalar keltirishicha, o'quvchilarida o'z o'qituvchiga xos xususiyatlar namoyon bo'lishi aniqlangan.

1. Tarbiyalanganligi-o'qituvchida 100%-o'quvchida 80%-90%

2. Bilimi-o'qituvchida 100%-o'quvchilarda 90%-100%

Tekshirishning natijalaridan shunday xulosa deyish mumkin. Boshlang'ich sinf



o'qituvchining ko'rsatkichlari sinfdagi har bir bolaning qanday ekanligini aniq tasavvur etishga yordam beradi.

Umumiy ta'lim poydevori muvaffaqiyatining yana muhim omillari, bu o'quv darslarda foydalanadigan xilma-xil ko'rsatma-tarqatma materiallar va texnika vositalaridir. Bularsiz ta'lim –tarbiya ishining sifat va samaradorligini oshirish haqidagi gap ham bo'lishi mumkin emas.

Ko'rsatmalilik –bilimlar ko'zgusi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda, shu jumladan 1-sinfda ko'rsatma qurollardan o'rinli va unumli foydalanish juda katta ahamiyatga egadir. Ko'rsatmalari darslar o'quvchilarda juda katta qiziqishuyg'otadi va ularning tasavvurlarini kegayishiga, mustaqil fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini o'sishiga, dars materiallarini to'liq o'zlashtirishga, bilimlarni puxta tushunib olishlariga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'rganishning natijalari quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi:

1. Ta'lim jarayonida va undan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bajaradigan barcha topshiriqlar boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan qay tariqa tashkil etilganligiga qarab o'quvchi shaxsiga turli darajada ta'sir etishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda o'z mas'uliyatini chuqur his etish, pedagogik mehnatiga ongli munosabati, murabbiylik mahorati o'zining boshqa eng nozik tomonlari bilan asosan darsda ko'rinadi va ular o'z o'quvchilarining xatti-harakati va xarakter xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

1. O'qituvchi dars jarayonida turli ko'rgazmalardan foydalansa, bolalarning fikrlash qobiliyatlari, yozuv ko'nikmalari, hisoblash malakalari oshib boradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar ham tarbiyani shakllantirishining mazmun-mohiyatidir. Har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi eng avvalo o'quvchilarni yosh xususiyatlarini o'rganish, uning natijalariga jiddiy e'tibor berish va bu o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i-mehnatsevarligi, bilimga chanqoqligi jamaoatchiligi, javobgarlikni his etish kabi sifatlarning yanada rivojlanish yo'llarini izlamog'i lozim. O'shandagina har tomonlama o'sib borayotgan yosh avlod kamolotiga ma'lum darajada ta'lim – tarbiyaviy jihatdan to'g'ri va samarali ta'sir etgan bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T:–“Xalq so'zi”. 2020. 30-dekabr soni.
2. Suxomlinskiy V.A. / sost. G.D. Gleyzer. - M. : ID SHalvy Amonashvili, 1997. – 224 b. - (Antologiya gumannoy pedagogiki).
3. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. T: O'zbekiston davlat pedagogika nashri, 1959.-465 b.
4. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. T: O'qituvchi. 2001.
5. www.ziyonet.uz

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI VA UNDAGI AMALIY ISHLAR

*Pirjanova Asema, Mambetova Gulnur, Jadigerova Kamilla*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 2-kurs talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga texnologiya darslarini o`tish, bu orqali o`sib kelayotgan yosh avlodni ularni mehnatsevarlikga, qo`l mehnatiga, jamoa bo`lib ishlashga o`rgatish orqali dunyoqarashini, fikrlashini kengaytirishga yordam berishi, shuningdek, texnologiya darslarida qog`oz va kartondan buyumlar yasash va uning ahamiyati haqida so`z etilgan.

**Kalit so`zlar:** texnologiya, mehnat, qo`l mehnati, malaka, ko`nikma, qog`oz, karton, yelim, qaychi.

Hozirgi kunda malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o`zida ta`lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko`tarish, shu bilan birga jahon ta`limi darajasiga yetkazish borasida muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirish zarur. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo`lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o`rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko`lamini hosil qilish, ma`naviy -axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta`limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog`liqdir. Jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan- texnika taraqqiyotini hayotga tadbiiq eta oladigan yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi.

Maktab ta`limining hozirgi bosqichida o`quvchilarni mehnatga tayyorlash, o`sib kelayotgan avlodning ta`lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang`ich sinflarda o`quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslangan qo`l mehnatidir. Fanni boshlang`ich sinf o`quvchilarining a`lo darajada o`zlashtirishi uchun esa biz turli xil metodlarni, bolalarni qiziqtirish uchun harxil o`yinlarni bilishimiz va ulardan dars o`tish jarayonida foydalanishimiz zarur va yetarli. Texnologiya ta`limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang`ich maktablarda butun ta`lim va tarbiya tizimida hamda barcha o`quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o`rinda mehnat ya`niy texnologiya darslari yetakchi rol o`ynaydi. Maktabda muntazam texnologiya ta`limining boshlang`ich bosqichi boshlang`ich sinflarda texnologiya darslarida va kichik maktab yoshidagi bolalarni qo`lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdir.

Boshlang`ich maktabdagi texnologiya ta`limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy tayorlash, o`quvchilarni boshlang`ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayorlashlardan iboratdir. Mehnatga axloqiy tayyorlash – o`quvchilarga jamoada ishlashni, o`zaro do`stona yordamni, ijodiy

tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, mehnat kishilari va mehnat natijalarini hurmat kilishga o'rgatishga yordam beradi. Mehnatga ruxiy tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun ta'lim va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Mehnatga ruhiy tayyorlash– o'quvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini shakllantirishdan ibortadir.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirish hisoblanadi. Bolalarni mehnatga qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhim. Texnologiya ta'limi vazifalari haqida gapirilganda, o'quvchilarda mehnatsevarlik ma'suliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma'naviy, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili bo'ladi. Bolalarni aqliy o'stirishda ham mehnat tahlimini roli ko'p qirralidir. Mehnat o'quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo'zg'atuvchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Mehnat tahlimi jarayonida o'quvchilarni aqliy o'stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi malaka va ko'nikmalarini shakllantirish quyidagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi:

- a) boshlang'ich tushuncha;
- b) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish;
- v) ish harakatlari;
- g) yakun chiqarish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi texnologiya ta'limi bo'yicha ishlarni amalga oshirayotganda, o'quvchilar u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilish kerak. Ana shunday holda o'qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo'lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi o'quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlaridan iborat. O'quvchilar ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlarini, ularning hayotda qo'llanilishi bilan tanishadi. Materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o'rganib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini qo'l mehnatiga o'rgatishda qo'llaniladigan asosiy usullar tizimi quyidagicha:

1. Og'zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Suhbat.



4. Mashqlar.
5. Amaliy ishlar.
6. Laboratoriya ishlari.
7. Mustaqil ishlar.
8. Ekskursiya.
9. Kitob bilan ishlash.
10. Texnik vositalar.

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'limi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turdaridan biri "Qog'oz va karton bilan ishlash" ekanligini ko'ramiz. 1-sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat texnologiya darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadi. Bu barcha o'quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, bosiladigan qog'oz turlari: yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qog'ozlaridir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri – siliq g'adir-budirligi bilan tanishadilar. O'quvchilar mashg'ulotlarda qog'oz varaqlarini buklaydilar va to'g'rilaydi, ularni qismlarga bo'lib yirtadi va qirqadi, bo'yaydi. Shu bilan birga qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasaydilar.

"Qog'oz va karton bilan ishlash" o'quvchilarni garmonik rivojlantirishida katga ahamiyatga ega. Ayniqsa, rangli qog'oz bilan ishlash ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlariga oldindan quyidagicha tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich qalam avtoruchka, old tomonlariga yelim qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini qo'yadi. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerak bo'ladigan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi, o'z ishlarini rejalashtira bilishi, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishi, o'qituvchi ko'rsatmalariga amal qilishi, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashi, mashg'ulotdan so'ng sinfni tozalab qo'yishlari kerak. Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi texnologiya darslarida ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, texnologiya darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek, texnika vositalaridan foydalaniladi.

Demak, yuqorida aytib o'tganimizdek, qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida

o'qituvchi quyidagi ko'rsatmali qurollardan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga o'quvchilar bu ko'rgazmalarni yasash bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin. O'qituvchi har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab olib borishi kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini qo'llab shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqda va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini sindirmoqda. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o'stirishga yordam berib kelmoqda. O'qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olishlari lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.A.Mavlonova, O.T.To'raeva, K.M.Xoliqberdiev, "Pedagogika" T., "O'qituvchi", 1998-y.
2. X.Sanaqulov, M.Haydarov, "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar", 1996-y.
3. N.M.Shumulevich, "Qog'ozdan texnik modellar yasash", T., "O'qituvchi", 1989-y.

## PROBLEMS OF SYNONYMY IN MODERN ENGLISH

---

*Urinova Urazgul*

*Transport University Academic Lyceum*

*English teacher*

**INTRODUCTION.** This course paper is devoted to the problems of synonymy in Modern English. The actuality of this work caused by some crucial points. We can say that the problem of synonyms is one of the main tricky ones for learners. It can be most clearly seen in the colloquial layer of a language, which, in its turn at high degree is supported by development of modern informational technologies and simplification of alive speech. As a result, a great number of new meanings of one and the same word appear in our vocabulary.

The aim of the work is to present an overview of the problems of synonymy in Modern English and their types, degree and changes through history and consider them in more detail.

The tasks of the investigation include:

- to teach the problem of synonymy to young learners.
- to show the importance of the problem for those who want to brush up their English.
- to mention all the major of linguists opinions concerning the subject studied.
- to study, analyze, and sum up all the possible changes happened in the studied branch of linguistics.

What is Synonymy?

Synonymy in a language can be viewed as a basic concept in lexicology. When meaning relations of words are studied, most researchers are inclined to prioritize the concept of synonyms in their investigation. Etymologically speaking, the term *synonymy* originates from a Greek word *synonumon* meaning having the same name.<sup>1</sup> Linguists interested in a study of meaning in language, known as semanticists, use this term to refer to a relationship of similarity or sameness of meaning between two or more words.

Cambridge Advanced Learners Dictionary defines *synonym* as a word or phrase which has the same or nearly the same meaning as another word or phrase in the same language, such as *small* and *little*. In a study of synonyms, two major types, strict and loose synonyms, are worth being discussed.

---

<sup>1</sup> Jackson & Amvela. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. 2000.



In Modern English a great number of synonyms serve to differentiate the meanings of words, their colloquial or bookish character. Most of bookish synonyms are of foreign origin, while popular and colloquial words are mostly native. Many native synonyms were either restricted in meaning or ousted altogether by foreign terms.

Still, according to the above definition, such strict synonyms are extremely rare or not existent. As a matter of fact, strict synonymy is considered uneconomical since it leads to unnecessary redundancy in a language.

Normally if a language begins to have a word which can fully replace another in every context of use, one of them tends to somehow change its meaning or become out of use. For example, according to Fromkin, Rodman, and Hyams<sup>2</sup>, in the history of English, the Old English word *frumsceaft* was widely used. Then with the flood of French words in the late 14<sup>th</sup> century, the word *creation* was borrowed and it was used alongside with *frumsceaft*. Later on, *creation* took over *frumsceaft* completely in all contexts, making *frumsceaft* become obsolete. Such phenomenon is claimed to prevent the occurrences of strict synonyms in English.<sup>3</sup>

The above examples indicate that synonyms can be interchangeably used where their meanings overlap, but where a meaning is beyond the shared area, one cannot substitute for the other.<sup>4</sup>

#### Types of Synonymy

According to Cruse, there are four types of synonyms: "absolute", "contextual", "cognitive" and "plesionymy". Synonyms could be placed on a scale of synonymity where different degrees of semantic overlap could emerge.

#### Cognitive Synonymy

Cognitive synonymy is a type of synonymy in which synonyms are so similar in meaning that they cannot be differentiated either denotatively or connotatively, that is, not even by mental associations, connotations, emotive responses, and poetic value. It is a stricter (more precise) technical definition of synonymy, specifically for theoretical (e.g., linguistic and philosophical) purposes. In usage employing this definition, synonyms with greater differences are often called near-synonyms rather than synonyms.<sup>5</sup>

If a word is cognitively synonymous with another word, they refer to the same thing independently of context. Thus, a word is cognitively synonymous with another

---

<sup>2</sup> Rodman & N. Hyams. The study of language. 2003.

<sup>3</sup> Jackson & Amvela. Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology. 2000.

<sup>4</sup> Thornbury. The Mental Lexicon and Vocabulary Learning. 2002.

<sup>5</sup> Shunnaq. Linguistics and Language Behavior Abstracts. 1992.

word if and only if all instances of both words express the same exact thing, and the referents are necessarily identical, which means that the words'

#### Contextual Cognitive Synonymy

This type of synonymy refers to lexical items which are cognitive synonyms in certain contexts but not in most contexts. Lyons (1969: 452) calls this type "context-dependent synonymy". This type of synonymy is best illustrated by discussing the lexical items buy and get in the following context: I'll go to the shop and get/ buy some bread.

These two words get and buy are used interchangeably in this context, so they are cognitive synonyms only in such a context. However, buy and get are not interchangeable in all contexts. Only get can be used in the sentence below: I will get my son from his office.

Lyons<sup>6</sup> mentions that "context-restricted synonymy may be relatively rare, but it certainly exists". For example, broad and wide are not absolutely synonymous, since there are contexts in which only one is normally used and the substitution of one for the other might involve some difference of meaning. For example, wide and broad are not interchangeable in a sentence like "The door was three feet wide", or in a sentence like "He has broad shoulders".

However, Lyons notes that there are also contexts in which they appear to be completely synonymous as it is the case in a sentence like "They painted a wide/ broad stripe across the wall"

Cruse<sup>7</sup> uses the term "pseudo-synonymy" instead of "context dependent synonymy". He differentiates between cognitive and pseudo-synonyms: Two sentences differing only in respect of cognitive synonymy occupying a parallel syntactic position are in general logically equivalent. However, logical equivalence between sentences differing only in respect of lexical items occupying a particular syntactic position does not guarantee that the lexical items in question are cognitive synonyms- they may well be pseudo-synonyms.

#### Plesionymy (Near-Synonymy)

Near-synonyms bring forth or give sentences with different propositional content. They refer to lexical items that share some aspects of meaning and differ in others. Therefore, near-synonyms are expressions that are more or less similar, but not identical, in meaning. The difference between a plesionymous pair and a hyponymous one is that the lexical items in the former deny one another, as in: "He is not just fearless; but more exactly, he is brave", but in the latter (hyponymous pair) the lexical items involve inclusion and entailment, e.g., bus, car and truck are included in vehicle, and tulip and rose are included in flower. In fact, plesionyms differ from one another

<sup>6</sup> John Lyons. Language and Linguistics. 1981.

<sup>7</sup> Cruse. Lexical Semantics. 1986.

only in respect of "subordinate traits": subordinate traits are those which have a role within the meaning of a word analogous to that of a modifier in a syntactic construction, e.g., red in a red hat and quickly in ran quickly.

### Absolute Synonymy

Absolute synonyms are rare in the vocabulary and, on the diachronic level, the phenomenon of absolute synonymy is anomalous and consequently temporary: the vocabulary system invariably tends to abolish it either by rejecting one of the absolute synonyms or by developing differentiation characteristics in one or both (or all) of them. Therefore, it does not seem necessary to include absolute synonyms, which are a temporary exception, in the system of classification.

Muddatidan oldingi tug'ruqning sabablari va uni oldini olishning zamonaviy diagnostikasi masalasi doimo dolzarbdir. Yuqori xavf guruhidagi ayollarda muddatidan oldingi tug'ruq belgilarini aniqlash, homiladorlik muddatini hisobga olgan holda, homilada respirator distress sindromining oldini olish uchun tokolitik terapiyani tanlash, infeksiya o'choqlarini sanatsiya qilish, shuningdek, istmik-servikal yetishmovchilikni oldini olish va davolash orqali muddatiga yetmagan tug'ruqlar oqilona boshqariladi. Amaliyotda qo'llaniluvchi oson diagnostik testlarning joriy etilishi, muddatidan oldingi tug'ruqda kesarcha kesish bo'yicha ko'rsatmalarning kengaytirilishi, istmik-servikal yetishmovchilikni o'z vaqtida tuzatish, muddatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlarni intensiv terapiya bo'limida davolashning yo'lga qo'yilganligi muddatidan oldingi tug'ruqlar darajasini pasaytiradi va sog'lom bolalar tug'ilishiga olib keladigan to'liq muddatdagi tug'ruqlar sonining ko'payishiga sabab bo'ldi [10].



JSST tomonidan tavsiya etilgan tirik tug'ilish uchun yangi mezonlarning kiritilishi bilan homiladorlikning 22-24 haftalarida sodir bo'luvchi QPTOEY muammosining dolzarbligi oshdi. QPTOEY fonida homiladorlikning uzaytirilishi ko'proq yetuk bolalar tug'ilishining oshirishga imkon beradi, lekin ayni paytda ona va homilada yiringli-septik asoratlarning xavfining ortishiga olib keladi. Homilador ayollarning 15-30 % ida intramniotik infeksiya rivojlanadi, bu esa homiladorlikda QPTOEY bilan kasallangan ayollarning 2-13 %ida tug'ruqdan keyingi endometrit rivojlanishiga sabab bo'ladi. Sezilarli darajada takrorlanuvchi uzoq suvsiz davr, homila suvlarining kamligi, ko'plab vaginal tekshiruvlardan so'ng esa xorioamnionit o'zini namoyon qiladi [8].

Bugungi kunda, tug'ruq faoliyati bo'lmaganda, odatda QPTOEYda homiladorlikni kutish taktikasi qabul qilinadi. Homiladorlik muddati qanchalik kichik bo'lsa, kutish taktikasi shunchalik afzalroqdir. Bu ona va homila holatini doimiy kuzatib borishni, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda respirator distress sindromi, yuqumli kasalliklar asoratining oldini olishni talab qiladi. Tokolitik terapiya neonatal respirator distress sindromining oldini olish uchun zarur bo'lib, u 48 soat ichida amalga oshiriladi [5].

Qo'g'onoq pardaning tug'ruqdan oldin erta yorilishi uchun xavf omillari:

- a) akusherlik va ginekologik anamnezning o'ziga xos xususiyatlari: bachadonning anomal rivojlanishi, anamnezda ikki yoki undan ortiq tabiiy yoki sun'iy abortlar;
- b) homiladorlikning asoratlari: ko'p homilalik, homiladorlikning turli muddatlarida tushish xavfi, homilador ayollarda kamqonlik, homilaning chanoq bilan joylashishi, platsentar yetishmovchilik, homiladorlikning turli bosqichlaridagi o'tkir respirator virusli infeksiyalar, homiladorlik toksikozlari;
- d) yondosh ekstragenital kasalliklar: har xil turdagi qandli diabet, ayirish tizimining yallig'lanish kasalliklari.

Qayta tug'uvchi homiladorlarda QPTOEY rivojlanish xavfi sezilarli darajada yuqori bo'lsa, muddatidagi tug'ruq sezilarli darajada kamayadi [1].

Kulakova V.I., Murashko L.E., Dvoryanskiy S.A., Araslanova S.N. ning ma'lumotlariga ko'ra QPTOEYda homilaga atrof-muhitning salbiy ta'siridan, xususan infeksiyadan himoyalanganligi tufayli homiladorlik va tug'ruqning normal kechishi buziladi, neonatal kasallik va o'limning ko'payishiga olib keladi [3].

Suvsiz davr davomiyligining oshishi ko'pincha medikamentoz tug'ruq induksiyasi qo'llashga sabab bo'ladi, natijada tug'ruqni olib borish "agressiv" bo'ladi. Buning oqibati kesarcha kesish bilan tug'ilish chastotasining ortishi kuzatilib, tug'ruqning kesarcha kesish bilan yakunlanishi 26,4% ni tashkil etadi [10]. QPTOEY kuzatilgan homiladorlarda tug'ruq vaqtida akusherlik "agressiv" ligini bartaraf etish orqali, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda postgipoksik kasallik darajasi pasayishiga erishish mumkin. Shu bilan birga, suvsiz davr davomiyligining ko'payishi yuqumli va yallig'lanish asoratlarning rivojlanish xavfini oshiradi, ularning rivojlanish xavfini

kamaytirish uchun esa, tug'ruqning maqbul taktikasini tanlash me'zonlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy va umumiy antibakterial terapiya o'tkazish orqali homiladorlarni olib borish, tug'uvchilarda tug'ruq jarayoni hamda ularning natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, kesarcha kesish orqali tug'dirish holatlarini kamaytiradi va perinatal natijalarning yaxshilanishi orqali yangi tug'ilgan chaqaloqlarda markaziy asab tizimining gipoksik-ishemik shikastlanishining kamayishi isbotlandi.

QPTOEY sodir bo'lgan ayollarning atigi 2%ida homiladorlik oxirigacha davom etadi, ammo 40% muddatidan oldingi tug'ruq tufayli neonatal kasallanish va o'limning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Muddatidan oldingi tug'ruq xavfi bachadon ichi infeksiyasi bor bo'lgan homiladorlarda ko'proq kuzatilib, sepsis bilan kasallangan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'limning 4 baravar ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, bachadon ichi infeksiyasi onada xorioamnionit rivojlanishi xavfini oshiruvchi muhim omil bo'ladi.

QPTOEY rivojlanishini pastki jinsiy yo'llardan ko'tarilgan infeksiya bilan bog'laydigan dalillar mavjud. QPTOEY bilan kasallangan ayollarning 1/3 qismida homiladorlik davrida qo'g'anoq suvlari tarkibida bakteriyalar aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bakteriyalar buzilmagan qo'g'anoq pardalari orqali kirib borishi mumkin [13].

Ko'pgina tadqiqotlarda muddatidan oldingi tug'ruqning 30-40 foizi qo'g'anoq pardaning tug'ruqdan oldin erta yorilishi genital tizimdagi infeksiyaga bog'liqligi aniqlangan. Urogenital sohaning shartli patogen mikroorganizmlari: ureaplazma, mikoplazma, B guruhi streptokokklar, Escherichia, xlamidiya, gonokokklar va boshqalar muddatidan oldingi tug'ruqning eng keng tarqalgan sabablaridandir.

Qo'g'anoq pardaning tug'ruqdan oldin va erta yorilishi zamonaviy akusherlik va perinatologiyada muhim o'rin tutadi, chunki hozirgi kunga qadar qo'g'anoq pardaning muddatdan oldin erta yorilishi va muddatdan oldingi tug'ruqning rivojlanish mexanizmi oxirigacha o'rganilmagan. So'nggi yilgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bachadon-yo'ldosh qon aylanishining buzilishi, qon ivish tizimi patologiyalari, qon tomirlarining va bachadonning tonusi oshishi bu patologiyaga sabab bo'lishi asoslandi [6]. Mikrosirkulyatsiyaning buzilishi bachadonni kislorod bilan ta'minlash, ona-yo'ldosh-homila tizimi, neyrometabolik, endokrin o'zgarishlar uchun qulay sharoitlarni yaratib beradi, bu qo'g'anoq pardaning muddatdan oldin erta yorilishi va muddatdan oldingi tug'ruqqa olib kelishi mumkin.

Muddatdan oldingi tug'ruqda: qo'g'anoq pardaning tug'ruqdan oldin erta yorilishi; tug'ruq faoliyatining sustligi; diskoordinatsiyasi yoki haddan tashqari kuchli tug'ruq faoliyati; tez yoki jadallashgan tug'ruq yoki aksincha, tug'ruq davomiyligining oshishi; yo'ldoshning muddatidan ilgari ajralishi tufayli qon ketish; tug'ruqdan keyingi va erta chilla davrida yo'ldosh qismlarining qolib ketishi oqibatida qon ketish; tug'ruq



vaqtida ham, tug'ruqdan keyingi davrda ham yallig'lanish asoratlari; homila gipoksiyasi; chalalik bilan tug'ilish; chaqaloqda respirator distress sindromi belgilari; perinatal patologiyalar uchrashi mumkin.

2009 yilgi Amerika akusherlik va ginekologiya jurnali hisobotlarga qaraganda - 1950-yildan, 2008-yilgacha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili Koxrane sharhlarida ko'rsatilgan. Bunda turli xildagi tokolitik preparatlarning qiyosiy samaradorlik tahlili o'tkazilgan. Platsebo bilan solishtirganda, barcha tokolitik vositalar homiladorlikni 48 soat va 7 kunga uzaytirishda ma'lum samaraga ega, bu esa yangi tug'ilgan chaqaloqlarda glukokortikoidlar bilan RDSni oldini olish uchun zarurdir.

Prostaglandin sintezi antagonistlari homiladorlikni kamida 7 kunga uzaytirishda eng yuqori samaradorlikka egaligi sabab, birinchi qator tanlov preparati sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Shu bilan birga, kalsiy kanali blokatorlari (nifedepin, korinfar) va betamimetik preparatlar (ginipral, partusisten)larning muddatidan oldingi tug'ruq xavfida samaradorligi isbotlanmagan bo'lishiga qaramay homiladorlik muddatini 37 haftagacha uzaytirish uchun qo'llaniladi [12]. Erta tug'ilish xavfi mavjud yangi tug'ilgan chaqaloqlar nafas olishining buzilishi (respirator distress sindromi)ning oldini olish uchun homiladorlarga glukokortikoid (deksametazon) ni buyurish ham muhimdir.

Natijada qo'g'onoq pardaning tug'ruqdan oldin erta yorilishi sodir bo'lgan homiladorlarda suvsiz davr davomiyligini 12 soatgacha yetkazish, tug'uvchi ayollar tana haroratining ko'tarilishi va umumiy ahvoning klinik yomonlashuvi, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda Apgar shkalasi ballining pasayishi va yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli-septik asoratlar darajasining oshishi kuzatilmaydi. Suvsiz davr davomiyligi 12soatdan 18 soatgacha bo'lgan tug'uvchi ayollarning umumiy ahvoli yomonlashuvining klinik belgilari, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda Apgar shkalasi ballining pasayishi va yallig'lanish jarayonining yengil shakllarining kuchayishi ehtimollari mavjud.

18 soatlik suvsiz davrdan so'ng, tug'ruq paytida ayollarning tana haroratining ko'tarilishi, tug'ruqdan keyingi davrda umumiy qon tahlilida leykotsitozning oshishi, yangi tug'ilgan chaqaloqlar birinchi va beshinchi daqiqalarida Apgar shkalasi ballining pasayishi kuzatiladi.

QPTOEY bilan tug'uvchi ayollarda suvsiz davr davomiyligi 12 soatgacha bo'lganda, qin va bachadon bo'yni mikroflorasida hech qanday o'zgarishlar kuzatilmaydi. 12 soatdan keyin disbiotik o'zgarishlarning ko'payishi bilan tug'ruq yo'llaring ifloslanish xavfi oshirishi mumkin. 18 soatlik suvsiz davrdan so'ng esa umumiy va shartli patogen floraning ifloslanishi kuchayadi va nomutanosiblikda majburiy anaerob flora miqorini oshiradi.

Tug'dirish usulini tanlash homiladorlik muddatiga, homilaning holati va ko'rinishiga, suvsiz davrning davomiyligiga, gemogramma ko'rsatkichlaridagi



yallig'lanish jarayonining mavjud yoki yo'qligiga, genital traktdagi ajralmalar xarakteriga, tug'ruq yo'llarining tug'ruqqa tayyorligiga, qorin bo'shlig'ining mikrosenoz holatiga qarab belgilanadi.

Antibakterial terapiya maqsadi 12 soatlik suvsiz intervaldan so'ng homiladorlik davri va tug'ruq jarayonidagi yiringli-yallig'lanish jarayonlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, suvsiz davr 18 soatgacha bo'lgan vaqtda antibiotikka chidamlilikni keltirib chiqaradi va kesarcha kesish bilan operativ tug'dirishga qarshi ko'rsatma hisoblanmaydi. Olimlar 18 soatlik suvsiz intervaldan so'ng, kutilayotgan tug'ruqni operativ boshqarishni taklif qilishadi [11].

QPTOY bilan murakkablashgan tug'ruqni faol boshqarishda eng ko'p uchraydigan asorat bachadonning qisqarish faoliyatining susayishi ekanligi isbotlangan.

Yangi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli suvsiz davr (12 soatdan ko'proq)da o'tkazilgan antibakterial terapiyadan so'ng to'liq muddatli homiladorlikda ham, muddatidan oldingi tug'ruqda ham, onalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham yiringli-yallig'lanish asoratlari ko'payishi kuzatilmaydi. Muddatidan oldingi tug'ruq xavfida patogenetik asoslangan dori terapiyasi homiladorlikning 75% ga uzaytirilishiga, perinatal o'lim va kasallanishning 2,5 baravar kamayishiga yordam beradi. Muddatidan oldingi tug'ruqda va qo'g'anoq pardalarning tug'ruqdan oldin erta yorilishi uchun xavf omili qin mikroflorasida turg'unlik *Streptococcus agalactiae* B - 40,1%, *E. coli* - 40,1%, *Enterococcus faecalis* - 32,7%, *Candida albicans* - 26,4%, *Staphylococcus aureus* - 20,0% bilan bog'liq. QPTOEY bilan asoratlangan muddatdan oldingi tug'ruq xavfida suvsiz intervalning davomiyligi, xorioamnionit belgilari bo'lmasa, tug'ruq homiladorlik muddati bilan belgilanadi. Homiladorlik muddati qanchalik kichik bo'lsa, muntazam tug'ruq shunchalik kech boshlanadi. Xorioamnionit 82,6% homiladorlarda dastlabki uch kun davomida muddatidan oldingi tug'ruq rivojlanishiga, 4% ida tug'ruqdan keyingi endometrit, 43,5% ida bachadon ichi infeksiyalanishiga sabab bo'ladi. Og'ir darajalarida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'rta va og'ir darajadagi asfiksiya 26 %ida, 30% ida respirtor distress sindromi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Xorioamnionitning klinik ko'rinishlari fonida o'tkaziladigan antibakterial terapiya samarasizdir [7].

Shuning uchun, QPTOY va QPTOEYning namoyon bo'lishida muhim omillar - jinsiy yo'llar infeksiyasining mavjudligidir. Bu ona va homilada homiladorlik va tug'ruqning asoratlari, shuningdek, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda RDS va asfiksiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Болотских В.М. Преждевременное излитие околоплодных вод при доношенной беременности. Журнал акушерства и женских болезней, 2013.- №6.-С.12-18.
2. Кулаков В.И., Серов В.Н., Сидельникова В.М. Преждевременные роды – тактика ведения с учетом срока гестации. Журнал акушерства и женских болезней. 2002; 2: 13-7
3. Кулаков В.И., Мурашко Л.Е. Преждевременные роды // Москва. «Медицина» 2002. 13с.
4. Орлова В.С., Калашникова И.В., Набережнев Ю.И. Подходы к ведению недоношенной при преждевременном излитии околоплодных вод. Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия Медицина. Фармация. 2010; 6(87), вып. 11: 13 – 21.
5. Полозская Ю.В., Щакурова Е.Ю., Попова Т.В. Акушерство и гинекология. 2014; 5 – 32
6. Пестрикова Т. Ю. и соавт. Ведение беременности и родов высокого риска: Рук-во для врачей. 2001.
7. Плеханова Е.Р. Преждевременное излитие околоплодных вод при недоношенной беременности. Тактика ведения беременности и родов. Автореферат дисс. канд.мед.наук. 2008.
8. Радзинский В.Е., Ордиянц И.М., ред. Преждевременный разрыв плодных оболочек. Информационное письмо. М.: Медибюро Статус презенс; 2011. 20с.
9. Сидельникова В.М., Антонов А.Г. Преждевременные роды. Недоношенный ребёнок: Руководство для врачей. М.: ГЭОТАР Медиа; 2006. 447с.
10. Серов В.Н., Сухорукова О.И. Эффективность профилактики преждевременных родов. Акушерство и гинекология. 2013; 3- 49
11. Тоноян Л.А. Тактика ведения родов при преждевременном излитии околоплодных вод. Автореферат дисс.док.мед.наук. 2007.
12. AJOG, Outcomes of children at two years after multiple courses of antenatal corticosteroids for threatened preterm birth: the multiple antenatal corticosteroids study (MACS). 2009. Issue 6. Volume 201. RCOG. Antenatal corticosteroids to reduce neonatal morbidity (Green-top Guideline No.7) 2010.

## XORAZMNI ARXEOLOGIK VA ETNOGRAFIK JIHATDAN O'RGANISH ISHLARINING BOSHLANISHI

*Normetova Mahfuza Alisher qizi*  
*Urganch Davlat Universiteti Tarixshunoslik va*  
*manbashunoslik yo'nalishi magistranti*  
*Ilmiy rahbar: t.f.n. Dots. M. Jumaniyazova*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm tarixini arxeologik-etnografik jihatdan o'rganishning boshlanishi va bu ishlarga boshchilik qilgan olimlarning ba'zi ilmiy ishlari ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Arxeologiya, etnografiya, Xorazm shaharsozligi, RANION, Janubiy o'zbek otryadi.

### KIRISH

Xorazm tarixini o'rganishdagi eng kata muammolardan biri yozma manbalarning kamligi yoki umuman yetishmasligidadir. Shu sababdan ham sovet davrida va bugungi kunda ham Xorazm tarixini o'rganishda eng asosiy o'rinda arxeologik va etnografik tadqiqotlar ahamiyati beqiyos. O'rta osiyo tarixini o'rganish jarayonida sovet olimlari yozma manbalar yetishmaganligi uchun amaliy tadqiqot ishlarini boshlaydilar.

### NAZARIY QISM

Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish ishini boshlab bergan olimlardan biri bu sermahsuz ilodkor A. Yu. Yakubovskiydir. U birinchilardan bo'lib Xorazm tarixi va madaniyatika qiziqish bildiradi va tadqiqot ishlarini XX asrning 20-yillaridan boshlaydi va tez orada o'zining Xorazm tarixi va etnografiyasiga oid ilmiy maqola va risolalarini e'lon qiladi. Yakubovskiy birinchi marta Xorazm tarixiga oid Xiva to'g'risida 1923-yilda maqolasini e'lon qiladi va keyinchalik 1929 va 1930 yillarda birin-ketin A. Yu. Yakubovskiyning uchta shaharga: Quyi Sirdaryo Signoqi, Xorazmdagi Urganch va Mizdahqonga bag'ishlangan uchta alohida yirik maqolalari paydo bo'ladi<sup>1</sup>. Bu maqolalarida Yakubovskiy o'zining arxeologik tadqiqotlari natijalariga ko'ra olgan ma'lumotlarini tahlil qilish orqali yuqorida nomlari keltirilgan shaharlar va qal'alar tuzilishi haqida bir qancha ma'lumotlarni beradi. Lekin Yakubovskiy tadqiqotini sof arxeologik izlanish deb bo'lmas edi. Chunki uning arxeologik izlanishlari keng ko'lamli bo'lmasdan ko'proq adabiyotlardagi yozma ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'z ishlarini e'lon qilgan edi. Lekin uning bu izlanishlari keyingi keng ko'lamli ekspeditsiyalarning ibtidosi bo'ldi.

<sup>1</sup> Академия наук СССР Институт этнографии имени Н. Н. Миклухо-Маклая. Культура и искусство древнего Хорезма. Москва: Издательство «Наука», 1981. С – 49.



Keyingi tadqiqotlarida Yakubovskiy Xorazm shaharsozligi, arxeologiyasi va Xorazm shaharlarining tasqi madaniy aloqalariga doir chuqurroq mazmun va kengroq qamrovga ega asarlarni ham eʼlon qiladi. Xorazm va uning asosiy shahri Urganchning rolining koʻp qirrali tavsifi A.Yu.Yakubovskiyning yana bir yirik va muhim asarida – “Oʻrta Osiyo feodal jamiyati va uning X—XV-asrlarda Sharqiy Yevropa bilan savdosi”da berilgan<sup>2</sup>.

Yakubovskiy bu tadqiqotida Xorazm aholisi oʻzining qoʻshnilaridan farqli ravishda oʻtroq hayot kechirgani va buning taʼsirida oʻz shaharsozlik madaniyatiga asos solib, bu shaharlarda oʻziga xos hunarmandchilik koʻrinishidagi ishlab chiqarishni vujudga keltirganliklari haqidagi maʼlumotlarni keltiradi. Bu tadqiqoti davomida Yakubovskiy asosiy eʼtiborni Oʻrta Osiyo shaharlari, xususan Koʻhna Urganch shahrining tashqi aloqalariga doir bir qancha qarashlarini ham bayon qilib oʻtadi.

A. Yu. Yakubovskiy Xorazmning tashqi savdo aloqalari rivojlanishida turli omillarni koʻrsatadi va ulardan birlamchi omil bu Xorazmning geografik jihatdan koʻchmanchi dashtga qoʻshniligi, bu erda koʻchmanchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda hunarmandchilikning oʻziga xos rivojlanishiga olib keldi, xususan, koʻp sonli dagʻal paxta matolarini maxsus qoʻshni gʻuz (turkman) dashti uchun tayyorlashgan<sup>3</sup>.

Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan deyarli mukammal oʻrgangan arxeolog olim S. P. Tolstov Xorazm tarixiga oid mavjud barcha muammolarni hal qilishga qaratilgan ekspeditsiyaning rahbari sifatida sarmahsul ilmiy ish olib borgan.

S.P.Tolstov Xorazm aholisi etnografiyasini birinchi sovet tadqiqotchilaridan biri: 1928-1929 yillarda. RANION (Российская ассоциация научно-исследовательских институтов общественных наук) etnografik ekspeditsiyasida qatnashgan, u Koʻhna Urganch va Xoʻjayli hududlarida ishlagan. Keyingi yillarda (1932-1934) SSSR xalqlari muzeyida ishlagan chogʻida u Oʻrta Osiyo xalqlari haqida yaratayotgan yangi ekspozitsiya uchun etnografik tadqiqotlar va eksponatlar toʻplash uchun bir necha bor Xorazm va Qoraqalpogʻistonga borgan<sup>4</sup>.

S. P. Tolstovning bu tadqiqotlari siyosiy holat talabi faqat arxeologik izlanishlar bilan cheklanib qoladi. Lekin keyingi davrda, yaʼni ikkinchi jahon urushidan soʻng Tolstov Xorazm hududidagi arxeologik yodgorliklarni keng koʻlamda, kompleks ravishda arxeologik va etnografik jihatdan oʻrganish ishlariga rahbarlik qiladi. Bunda Xorazmda arxeologik yodgorliklarning saqlanish sifati yaxshiligiga sabab sifatida hudud geografiyasini koʻrsatish mumkin.

<sup>2</sup> Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. Торговля с Московским государством и международное положение Средней Азии в XVI—XVII вв. Л., 1932, с. 1—60.

<sup>3</sup> Oʻsha manba: 3-4-betlar

<sup>4</sup> Академия наук СССР Институт этнографии имени Н. Н. Миклухо-Маклая. Культура и искусство древнего Хорезма. Москва: Издательство «Наука», 1981. С – 21.

Xorazm vohasi aholisining etnografik o'ziga xosligi uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarda chuqur qiziqish uyg'otdi, ular cho'llar bilan o'ralgan geografik joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari madaniyatning qadimgi shakllarini saqlashga yordam berdi, deb hisoblashadi<sup>5</sup>.

O'zbek aholisi o'rtasida etnografik ishlarni uchta jamoa olib bordi. 1946-yilda ikkita - Shimoliy o'zbek va janubiy o'zbek otryadlarining tashkil etilishi o'tmishdagi Xorazm o'zbeklarining kelib chiqishi va etnik-madaniy qiyofasining xilma-xilligi bilan bog'liq edi. Ularning ba'zilari vohaning markazi va janubida yashab, o'zlarini sart deb ataganlar, ilk o'rta asrlarda turkiy tilni o'zlashtirgan qadimgi xorazmliklarning avlodlari bo'lgan xorazmliklardir<sup>6</sup>.

Janubiy o'zbek otryadi M. V. Sazonova rahbarligi ostida 1946-1949-yillarda ilk ilmiy ishlarni olib brogan. Uning asosiy vazifalaridan biri vohaning tub aholisining xorazmlik ajdodlari bilan bo'lgan madaniyatining etnik-madaniy an'analari va tarixiy davomiyligini o'rganish edi. Buning uchun ko'p qirrali tadqiqotlar olib borildi: qishloq xo'jaligi texnikasi, sug'orish inshootlari, jumladan, Xorazmga xos bo'lgan chigir o'rganildi; asl, arxaik tipdagi xorazm arba; arxeologik materiallar bilan solishtirish va o'zaro bog'lashda katta ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik va hunarmandchilik buyumlari: kulolchilik, poshnalar ishlab chiqarish, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish. Shimoliy o'zbeklarning kiyimlaridan farq qiladigan o'ziga xos kiyim va bosh kiyim turlariga katta e'tibor berilgan<sup>7</sup>.

M. V. Sazonova tadqiqotlarida yuqorida takidlangan ekspeditsiya faoliyati tarkibida aniqlangan dala tadqiqot materiallari asosida qiziqarli ma'lumotlar aniqlanib, e'lon qilingan. Nashr etilgan ilmiy hisobotda qisman aks ettirilgan katta oilaning qoldiqlari bo'yicha dala ishlari davomida to'plangan materiallar juda qiziq.

### **NATIJALARNI MUHOKAMA QILISH**

Xorazm tarixini arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish ishini Yakubovskiy boshlab bergan bo'lsada, uning ilmiy ishlari mavzuni to'liq qamrab ololmagan va ko'proq amaliyotga emas, balki nazariyaga, adabiyotlardagi ma'lumotlar tahliliga asoslangan edi. Keyingi davrda, ikkinchi jahon urushigacha va urushdan keyingi davrdagi Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish ishlariga S. P. Tolstov rahbarlik qiladi va bu tadqiqot amaliyoti davomida juda boy ma'lumotlar beriladi. M. V. Sazonovanning tadqiqotlarida esa Xorazm madaniyatini to'laligicha etnografik jihatdan o'rganish boshlanadi.

<sup>5</sup> К. А. Иностранцев. О домусульманской культуре Хивинского оазиса.— «Журнал Министерства народного просвещения». Н. С. Ч. 31. 1911, февраль

<sup>6</sup> Академия наук СССР Институт этнографии имени Н. Н. Миклухо-Маклая. Культура и искусство древнего Хорезма. Москва: Издательство «Наука», 1981. С – 28.

<sup>7</sup> O'sha manba, o'sha joyda

## XULOSA

Xorazm vohasi qadim davrdan odamzod tamadduni o‘choqlaridan biri bo‘lib o‘z bag‘rida ko‘plab sir-sinoatni saqlab, tadqiqotchilarini kutib yotardi vaXX asr boshlaridan olimlar tomonidan bu o‘ziga xos hudud o‘rganila boshlandi. Dastlabki tadqiqotlar keng ko‘lamli bo‘lmasada boshlang‘ich ibtido vazifasini bajardi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi esa mavjud ko‘plab savollarga javob berdib, bugungacha davom qilayotgan Xorazm tarixini keng ko‘lamda o‘rganish ishlarini boshlab berdi. Shu davrda olimlar tomonidan nashr qilingan ilmiy ishlar bizning zamonimizda ham tayanch manba vazifasini o‘tab kelmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Академия наук СССР Институт этнографии имени Н. Н. Миклухо-Макля. Культура и искусство древнего Хорезма. Москва: Издательство «Наука», 1981.
2. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. Торговля с Московским государством и международное положение Средней Азии в XVI—XVII вв. Л., 1932.
3. К. А. Иностранцев. О домусульманской культуре Хивинского оазиса.— «Журнал Министерства народного просвещения». Н. С. Ч. 31. 1911, февраль.
4. ТХАЭЭ. Под общей редакцией профессора С.П.Толстова. Том I. Москва: Издательство Академии наук СССР, 1952.



## PALEOEKOLOGIYA FANINING VUJUDGA KELISHI, VAZIFALARI VA BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

*Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li*

*Urganch davlat universiteti Arxeologiya yo'nalishi magistranti*

*Ilmiy rahbar: PhD Karimov Yashin*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola paleoekologiya fanining vujudga kelish tarixi, uning boshqa fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanib borishini va fanning tarixiy jarayonni yoritishdagi ahamiyatini yoritib beradi. Tadqiqotda asosan fanning vujudga kelish masalasiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Paleoekologiya, Amu daryo, ekologiya, paleontologiya, paleogeografiya, E.Gekkel, V. O.Kovalevskiy, N. I. Andrusov, L. Dollo, O. Abel, A.P.Karpinskiy, N.N.Yakovlev, Gerodot, Polibiy.

### KIRISH

Tarix fani turli davrlarda yashagan adiblar tomonidan yozilgan asarlar va ilmiy ishlar natijasida yangi ma'lumotlar bilan boyib bordi va bu jarayon bugungi kungacha davom qilmoqda. Tarixni tadqiq qilish davomida tarix fani tarmoqlarga ajralib bordi va bu tarmoqlar fanning turli muammolarini o'z doirasida o'rganishga muhim ahamiyat kasb qilib bordi.

Bugungi ilm-fan taraqqiy qilgan zamonda fanlar aro integratsiyalashuv jarayoni kuchaygan sharoitda turli fanlardan olingan ma'lumotlar yana boshqa bir fanga oid muammolarni yechishda yordam bermoqda. Masalan, astronomiya fani geografik ma'lumotlarni to'ldirsa, geologiya tarix fanining arxeologiya tarmog'idagi muammoli masalalarni hal qilishda yordam bermoqda. Buning natijasida esa ilm-fanda yangi bilimlarni qamrab oluvchi va o'zining obekti va predmetiga ega bo'lgan fanlar vujudga kelib bormoqda. Bu yangi fanlardan biri sifatida paleoekologiya fani nisbatan yangi tarmoq hisoblanadi.

### NAZARIY QISM

Tirik organizmlarning vujudga kelishida birinchi navbatda geografik muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tirik organizmning hayot tarzini belgilab beruvchi omil ham uni o'rab turgan muhitning ta'siri hisoblanadi. Ekologiya fani esa organizmni o'rab turgan muhitni, tabiiy sharoitni o'rganuvchi fanlar majmuyi hisoblanadi. Ekologiya atamasi 1869 yilda nemis biolog E.Gekkel tomonidan biologiyaning tirik organizmlarning atrof-muhit bilan aloqasini o'rganuvchi bo'limini belgilash uchun

taklif qilingan. Keyinchalik bu aloqalar supraorganizm (populyatsiya) darajasida ko'rib chiqila boshlandi<sup>1</sup>.

Muhit elementlari organizmlar holatiga, o'sish, rivojlanish, ko'payish, tarqalishiga to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa ikkilamchi omil sifatida ta'sir qiladilar... Muhitning o'ziga xos xususiyatlari evolyutsion rivojlanishning uzoq davrlarida ham o'zgarmay qolgan. Bunga yerning tortish kuchi, quyoshdan kelayotgan radiatsiya, ocean tuzlari tarkibidagi tuz miqdori va atmosferaning tarkibi kiradi<sup>2</sup>.

Tarixiy jarayonni, qadimgi odamlar yashagan muhitni, ularning xo'jalik madaniyati shakllanishidagi shart-sharoitni, ibtidoiy madaniyatlarni vujudga keltirgan tabiiy omillar modelini qayta tiklashda va o'rganishda tarixchi va arxeologlar boshqa fanlarga murojaat qilishga to'g'ri keldi va buning asosida paleoekologiya fani shakllana boshladi.

Paleoekologiya (paleo... va ekologiyadan), geologik o'tmishdagi organizmlarning turmush tarzi va yashash sharoitlarini, organizmlar va ularning yashash muhiti (noorganik va organik) o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning tarixiy jarayondagi o'zgarishlarini o'rganuvchi paleontologiya bo'limidir.

Paleoekologiyaning asoschisi rus paleontologi V. O. Kovalevskiy bo'lib, u yo'q bo'lib ketgan quruqlikdagi umurtqali hayvonlarning evolyutsion va paleoekologik tahlilining yorqin misollarini keltirgan. Qazilma dengiz va sho'r umurtqasiz hayvonlarning klassik tadqiqotlari rus geologi N. I. Andrusov tomonidan amalga oshirilgan. Paleoekologiyaning rivojlanishi uchun belgiyalik paleontolog L. Dollo (1857-1931) va ularni "etologik-paleontologik" deb atagan va avstriyalik tadqiqotchi O. Abel (1875-1946) o'zining "paleobiologiya" atamasini taklif qilgan, keyinchalik "paleoekologiya" atamasi bilan almashtirilgan asarlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Paleoekologiyaning rivojlanishiga Rossiya imperiyasi va Sovet davrida geolog va paleontologlar A.P.Karpinskiy (1847-1936) va N.N.Yakovlevlar (1870-1966) katta hissa qo'shdilar.<sup>3</sup>

Paleontologiyaning bu tarmog'iga qiziqish XX asr boshlarida kuchaygan va fanning vujudga kelishi, shakllana boshlash davri sifatida ham shu davrni ko'rsatish mumkin bo'ladi. Keyinchalik organizmlarning qoldiqlari va tosh qotmalarini tahlil qilish orqali ularning hayot tarzi va yashash muhiti o'rganilib, yangi ma'lumotlar fanni boyitib bordi. Fanning asosiy vazifasi ham hayotni vujudga keltirgan sharoitini o'rganish hisoblanadi va bundan kelib chiqib aytish mumkinki, fanning ob'ekti organism qoldiqlari, ular qoldirgan izlar, hayotiy faoliyat ko'rinishlaridir.

Fan nisbatan yosh bo'lishiga qaramay, unga oid bo'lgan qiziqarli ma'lumotlar turli davrlarda yashagan tarixchi va geograflar asarlarida bayon qilib o'tiladi. Bu

<sup>1</sup> Л.Г.Бондарев. Палеоэкология и историческая экология - Издательство Московского университета 1998-С. 3

<sup>2</sup> Ahmadqul Ergashev. Umumiy ekologiya – Т. "O'zbekiston" 2003. 31-bet

<sup>3</sup> Палеоэкология // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. Том-19. — 3-е изд. — М. : Советская энциклопедия, 1969—1978. –С. 115.

asarlar aynan hayot va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilmasada, lekin hududlar geografiyasi, geomorfologiyasi va paleoekologiyasiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Masalan O'rta Osiyoning eng muhim tiriklim manba'si bo'lgan Amudaryo haqida yunon muarrix Gerodot "Tarix" asarida Amudaryoning o'zi ikki nom ostida namoyon bo'ladi. Birinchi holatda Amudaryo Araks daryosi nomi bilan Kirning yurishi haqidagi qissada, ikkinchisida Akes nomi bilan Osiyo va xorazmliklar yerlari tasvirida; shu bilan birga, birinchi hikoyatda Amudaryoning bir tarmog'i Kaspiyga quyilishi aytiladi<sup>4</sup>.

Keyinchalik yunon manbalarida Kasbiy dengizidan Hindistonga yo'l mavjudligi haqida qarash shakllanadi va buni bir necha yunon muarrixlari asarlarida kuzatish mumkin bo'ladi. Lekin miloddan avvalgi II asrda Polibiyning "Umumiy tarix" asarida O'rta Osiyo geografiyasiga oid juda qimmatli ma'lumotlar tufayli ushbu an'anaviy fikrga shubha uyg'otadigan ma'lumotlar paydo bo'ldi. Polibiy, Apasiaklar yashaydigan hududni tasvirlab, Oka (Amudaryo) Girkan dengiziga quyilishi, uning kema yurishi mumkin bo'lgan daryo ekanligini ko'rsatadi va shu bilan birga, "ko'chmanchilar Okadan otlari bilan qanday qilib quruqlik orqali Girkaniyaga o'tishganidan hayratda ekanligini bildiradi." Buni tushuntirib, Polibiy ikkita hikoya beradi. Ulardan birining so'zlariga ko'ra, "Apasiaklar, ular aytganidek, qoyaning yonida, sharshara ostidagi Girkaniyaga otlar bilan quruqlikdan o'tishadi". Boshqa bir voqea, Polibiyning fikricha, avvalgisidan ko'ra ishonarliroqdir: "Daryo suvlari bilan yuvilgan hududda daryo suvlari qoyalardan tushadigan keng tekisliklar bor, daryo tez oqib tushishi bilan bu tekisliklarni bo'shatib yuboradi, chuqurlikka kirib boradi va qisqa masofaga er ostidan oqib o'tadi, keyin yana suv yuzasiga chiqadi; Ot ustidagi ko'chmanchilar hudud haqidagi bilimlardan foydalanib, daryo suvi tegmagan bo'shliq orqali Girkaniyaga boradilar"<sup>5</sup>.

Yunon mualliflarining bu ma'lumotlari ilmiy jihatdan ko'plab xatoliklarni takrorlasada, lekin shu davr uchun xos bo'lgan tabiiy sharoit haqidagi qimmatli ma'lumotlarni beradi. Keyingi davrlarda esa bu ma'lumotlar sayqallanib, savdo va madaniy yo'llar rivojlanishi natijasida mukammallashib boradi va o'rta asr mualliflari asarlarida ham bir qancha ilmiy asosga ega bo'lgan ma'lumotlar orqali fan taraqqiy qilib boradi.

Fanning bu tarmog' nafaqat tarixiy muhitni, balki, o'zining boy manbalari asosida kelajakni ham prognoz qilish mumkin. Paleoekologik tadqiqotlar kelajakda

<sup>4</sup> С. Я. Толстов, А. С. Кесь. Низовья Аму-дарьи; Сарыкамьш., Узбой. История формирования и заселения. – М: Издательство Академии наук СССР, 1960. –С 5.

<sup>5</sup> В. В. Батольд. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-Дарьи с древнейших времен до XVII в. «Изв. Туркестанского отдела РГО», т. IV. Ташкент, 1902, -С. 15-16



biosferadagi tabiiy sharoitlarning rivojlanishini paleogeografik va paleoklimatik ma'lumotlar asosida bashorat qilish imkonini beradi<sup>6</sup>.

Paleoekologiya fani birinchi navbatda tosh qotmalarni o'rganuvchi paleontologiya fanini keng ma'lumotlar bilan to'ldiradi va tadqiqot davomida bir qancha quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- alohida organizmlar o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlar va ularning biotik aloqa shakllarini oydinlashtirish;

- ularning tarqalish hududlari (yashash joylari) chegaralarini, aholi punktlarining zichligini (aholi tabiatini) o'rganish;

- munosabatlar yo'nalishlarini o'rganish (raqobat, simbioz, parazitizm, komensalizm, amensalizm va boshqalar);

- ma'lum abiotik omillarga (sho'rlanish, havzaning chuqurligi, tubining tabiati, qirg'oqdan masofa, gaz rejimi va boshqalar) qarab individlarning o'zgaruvchanligi (shakllarning yo'q qilinishi yoki gullab-yashnashi) xususiyatini aniqlash.

- muhitdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda xossalanish tezligini shakllantirish va aniqlash jarayonlarini o'rganish (stratigrafik taqsimot tahlili, qalinlik tahlili va boshqalar);

- konvergentsiya va parallellik hodisalarini, shakllar migratsiyasini aniqlash va ularning sabablarini aniqlash;

- paleotsenzlar evolyutsiyasi masalalarini o'rganish va individual taksonlarni o'z vaqtida almashtirish qonuniyatlarini o'rganish;

- turli taksonomik toifalar va ekogenez jarayonlari uchun adapteogenez jarayonlarini aniqlash va boshqalar<sup>7</sup>.

Paleoekologiya fani hayotni vujudga keltirgan omillar, hayot xususiyatlarinigina o'rganib qolmasdan, hayot shakllarining tabiat va atrof muhitga ta'sirini ham tadqiq qiladi. Tirik organizmlar ham o'zlarining hayot faoliyatida, o'zlari yashab turgan tabiiy joyga sezilarli darajada ta'sir qiladi va muhit holatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, nafas olishda qabul qilinadigan kislorod fotosintez jarayonida yashil o'simliklar tomonidan ajratiladi va tabiatda to'planadi. Ekologik omillar tirik organizmlarga alohida-alohida va bir-birlaridan ajralgan holda emas, balki ular murakkab kompleks tarzida bir vaqtda ta'sir qiladilar. Organizmlar kompleks omillarsiz yashay olmaydilar<sup>8</sup>. Ya'ni hayotni ta'minlovchi omillar bir qancha bo'lib, ular biri-ikkinchisini taqozo qilgan holatda bir butun tizimni tashkil qiladi.

Shu kompleks tizimni o'rganishda paleoekologiya fani bir necha fanlarga murojaat qilish orqali fanlar aro ma'lumotlarni boyitib boradi. Bular stratigrafiya,

<sup>6</sup> Г. Н. Киселева, А. В. Попова. Общая палеоэкология - Издательство С.Петербургского университета 2000-С. 24

<sup>7</sup> Г. Н. Киселева, А. В. Попова. Общая палеоэкология - Издательство С.Петербургского университета 2000-С. 24-25

<sup>8</sup> Ahmadqul Ergashev. Umumiy ekologiya – Т. “O'zbekiston” 2003. 33-bet

bioastronomiya, paleogeografiya va boshqalardir. Paleoekologik tadqiqotlar sistematika uchun foydali bo'lishi mumkin: morfologik xususiyatlarni paleoekotizimdagi adaptiv tuzilmalar sifatida talqin qilish, ularning evolyutsion ahamiyatini baholash va taksonomik darajasini aniqlashi mumkin.

Paleoekologik tadqiqotlar ma'lumotlari paleogeografiyaning muayyan muammolarini hal qilish uchun ishlatilishi mumkin. Ular geologik vaqtning ma'lum bir oralig'ida organizmlarning tarqalish xususiyatlarini tushuntira oladilar. Dengiz umurtqasizlari - qirg'oq chizig'ining ishonchli ko'rsatkichlari (toshli qirg'oqlarda o'sish, "qattiq tub" fatsiya va boshqalar). Bo'shashgan qirg'oq bo'yidagi sayoz suv cho'kindilari hayotiy faoliyatning oddiy, odatda vertikal izlari bilan ajralib turadi, ular chuqurlashganda o'zgaradi, ular yanada murakkab gorizontalar yo'laklarga, so'ngra kuchli aylanma va spiral o'tishlarga (hayotiy faoliyat izlarining fasiy spektrlari) aylanadi. Sohil chizig'ining to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatkichlari mavjud bo'lmaganda, organizmlarning paleobazin ichida, ekologik guruhlarining dolzarb, trofik va boshqa belgilariga ko'ra tarqalishida qonuniyatlar aniqlanadi<sup>9</sup>.

Paleoekologiya va paleogeografiya fanlari o'z ichida bir-birini to'ldiradi va tabiiy muhirdagi organizm va geografik omillarning o'zaro ta'sirlashishidan qolgan belgilar asosida tarixiy jarayonni qayta tiklashda yordam beradi.

### **NATIJALARNI MUHOKAMA QILISH**

Paleoekologiya fani Paleontologiya fanining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uninga oid ma'lumotlarning qadimgi davrdan boshlab uchrashini ko'rishimiz mumkin. Fan faqatgina paleontologiyaga oid bilimlarni beribgina qolmasdan, kishilik jamiyati vujudga kelgan hududlar va ularning ko'chib borib o'rnatilgan muhitda hayot kechirishlari uchun imkon bergan omillarni ham o'rganadi, insonning tabiatga ta'siri masalalarini ham tadqiq qiladi.

Paleoekologiya fanini alohida tarmoqqa ajratgan omil ham aynan inson-muhit ta'sirini kengroq o'rganishga bo'lgan intilishdir. Ma'lum madaniy hududda inson xo'jalik hayotini yuritish uchun mavjud tarixiy sharoitni o'rganishning ahamiyati fanning muhim roli belgilab beradi.

### **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqish aytish mumkinki, paleoekologiya fani tarix fanini to'ldiradi va uni yangi ma'lumotlar bilan boyitishga hizmat qiladi. Paleoekologiya tabiiy fanlar bilan aloqadorlikda o'tmishdagi inson hayot kechirgan muhitni qayta tiklaydi va o'rganadi, undagi o'zgarishlarni, xo'jalik tiplarni shakllantirgan omillarni tadqiq qiladi.

Paleoekologiya fani organizmlar o'rtasidagi ta'sir munosabatlarini, ularning tarqalish hududlari, chegaralari, munosabat yo'nalishlarini, muhit o'zgarishining

<sup>9</sup> Г. Н. Киселева, А. В. Попова. Общая палеоэкология - Издательство С.Петербургского университета 2000-С. 28

insonga ta'sirini, migratsion jarayonlar va ularning sababini va boshqalarni o'rganishda tarix faniga ko'maklashadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Л.Г.Бондарев. Палеоэкология и историческая экология - Издательство Московского университета 1998-С. 3
2. Ahmadqul Ergashev. Umumiy ekologiya – Т. “O'zbekiston” 2003.
3. Палеоэкология // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. — 3-е изд. Том-19. — М. : Советская энциклопедия, 1969—1978.
4. С. Я. Толстов, А. С. Кесь. Низовья Аму-дарьи; Сарыкамыш,. Узбой. История формирования и заселения. – М: Издательство Академии наук СССР, 1960.
5. В. В. Батольд. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-Дарьи с древнейших времен до XVII в. «Изв. Туркестанского отдела РГО», т. IV. Ташкент, 1902.
6. Г. Н. Киселева, А. В. Попова. Общая палеоэкология - Издательство С.Петербургского университета 2000.



## EFTALITLAR DAVLATI TASHQI SIYOSATI VA UNING QO'SHNI HUDUD VA XALQLAR TARIXIDAGI AHAMIYATI

*Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li*

*Urganch davlat universiteti Arxeologiya yo'nalishi magistranti*

*Normetova Mahfuza Alisher qizi*

*Urganch Davlat Universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik yo'nalishi magistranti*

### ANNOTATSIYA

Maqolada ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida tashkil topgan davlatlar va ularning ichida eng yuksagi Eftalitlar davlati vujudga kelishi, tashqi siyosati va parchalanishi bayon qilinib, uning faoliyati davomida tarixda qoldirgan izlari va ta'sirlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Eftalitlar, kidariylar, Kushon imperiyasi, Axshunvar, Toromana, Mixirakula, Gاتفara, Eron, sosoniylar, E.N. Uspenskaya, rajputlar, Xusrav I.

### KIRISH

Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan Kushon imperiyasi o'z davrida dunyoning eng qudratli davlatlari qatorida bo'lgan va Rim imperiyasiga qiyoslangan. Bu davlat milodiy III asrning 30-yillarida tugatilishi bilan uning o'rnida bir qancha mustaqil davlatlar vujudga keldi. Bu hududda dastlab Xioniylar, keyinchalik Kidariylar va Eftalitlar davlatlari shakllanadi.

Yuqoridagi davlatlar O'rta Osiyo hududida ketma-ket hukmronlik qiladilar va bu yerdan o'tgan Buyuk ipak yoli tarmoqlarini nazoratga olib, faol tashqi siyosat olib boradilar, Ayniqsa, Eftalitlar davlati tashqi qo'shnilariga ta'siri jahon tarixi va undagi voqealar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

### NAZARIY QISM

Faqat Eftalitlar davlatigina Kushon imperiyasining munosib davomchi bo'ldi. Uning hududlari Kushon imperiyasi hududlaridan keng bo'lsada mustahkam emas edi. Bu davlat boshqaruvi harbiy kuchga tayangan, ijtimoiy tuzulishiga ko'ra yer-mulk munosabatlariga asoslangan shaklda edi. Mamlakat bir necha mulklar birlashuvidan iborat bo'lgan. Xitoy, Suriya va Arman manbalarida Axshunvar, Toromana, Mixirakula, Gاتفara, Faronish kabi hukmdorlar sanab o'tiladi. Ular faol tashqi siyosat olib borib, davlat hududlarini kengaytirganlar. Manbalarda sanab o'tiladigan hukmdorlarning ko'pchiligi markaziy hokimiyat boshlig'i bo'lmasdan, mahalliy yirik feodal mulk egalari bo'lishgan.

Eftalitlar Xushnavaz (Axshunvar)<sup>1</sup> boshchiligida 457-yildan e'tiboran Chag'oniyon, Tohariston va Badaxshonni bo'ysundiradilar<sup>2</sup>. Eftalitlar davlati janubiy qo'shnisi bo'lgan Sosoniylar davlati bilan urushlar olib borishga majbur bo'ladi. Tobora Eftalitlar davlatining qudrati oshib boradi va Sosoniylar hukmdori Peroz mamlakar shimolida shakllangan qudratli Eftalitlar davlati xavfini anglab, eftalitlarga qarshi bir necha bor urushga kiradi. Perozning muvaffaqiyatsiz yurishlari oqibatida Eron Eftalitlarga hiroj to'lash majburiyatini oladi va buni aholiga har bir kishi uchun og'ir bo'lgan jon boshi soliqlari solish yo'li bilan to'laydi.<sup>3</sup>

Keyinchalik Eftalitlar Qobul va Panjob vodiysini, Qarashar, Urumchi (490), Qoshg'ar (497-509) va Xo'tanni ham zabt etadilar<sup>4</sup>. Shu tariqa Eftalitlar davlati Kushon imperiyasi siyosatini davom ettirib, Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan davlatga asos soladilar.

Sosoniylar davlati ijtimoiy-iqtisodiy hayoti Eftalitlarga katta hajmda o'lpon to'lab turilishi oqibatida inqirozga uchraydi. Buning ta'sirida Sosoniylarning ichki hududlarida markazga bo'ysunmaslik harakatlari kuchayib boradi. Xususan, 450-451 va 481-484-yillarda Kavkazortida qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi<sup>5</sup>.

Eftalitlar davlatiga qarshi urush va ichki kurashlar oqibatida ojizlashgan Sosoniylar davlati hukmdorlari o'zlarining azaliy dushmani bo'lgan Vizantiya imperiyasi bilan yaqinlashishga majbur bo'ladilar. Sosoniylar Vizantiya bilan 387-yilda tinchlik sulhini tuzadilar va bu bitim keyinchalik, 502-yilgacha bo'lgan davrda ittifoqchilik ko'rinishini ham oladi. Sosoniylar Eftalitlarga boy berilgan hududlar va ularga to'lanadigan o'lpon tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Sosoniylarning bu qiyinchiliklarni xaqning talanishi evaziga bartaraf qilishga urinishlari xalq orasida norozilikni keltirib chiqaradi. V asr ohiri va VI asrlarda (491-529-yillar oralig'ida) Mazdakiylik g'oyasi bayrog'i ostida xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Buning oqibatida Eron Sosoniylari hukmdori Kubod (488-531) xalqni tinchlantirish maqsadida qo'zg'olonchilarga yon beradi va Mazdakni o'z maslahatchisi qilib tayinlaydi. Lekin, Mazdak va uning tarafdorlari Kubodning ukasini taxtga o'tqazdilar, Kubodni esa Xuzistonda joylashgan qo'rg'onga qamab qo'yishadi. Kubod u yerdan qochib Eftalitlardan harbiy yordam so'raydi va taxtni qaytarib oladi<sup>6</sup>.

Iqtisodiy tanazzul, bir qancha hududlarning Eftalitlarga boy berilishi va ularga to'lanadigan og'ir to'lovlar oddiy xalq hayotini og'irlashtirdi va ommaviy ochlik ko'rinishlari avj olib bordi. Tinka-yu madori qurigan xalq Mazdak g'oyalariga ergashdi

<sup>1</sup> Николай Сычев. Книга династий. М.: "Восток-Запад". 2005. -Стр.564.

<sup>2</sup> Qarang: Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, Soibjon Xoshimov. Vatan tarixi. Birinchi kitob. - T.: "SHARQ", 2016, 109-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 110-bet.

<sup>4</sup> O'sha manba, o'sha joyda.

<sup>5</sup> Qarang: Академия Наук СССР. Всемирная Исиория в десяти томах. Том III. М.: "Государственное издательство политической литературы", 1957. -Стр.97.

<sup>6</sup> O'sha manba, o'sha joyda.

va Eron tarixida chuqur iz qoldirgan qo'zg'alon vujudga keldi. Taxtdan mahrum bo'lgan Kubod o'zining ittifoqchisi va tayanchi bo'lgan Eftalitlardan yordam oladi va yana hokimiyatni qo'lga olib o'z "Homiy"lariga o'lpon to'lashda davom etadi. Eftalitlar ta'sirida vujudga kelgan mazdakiylik g'oyasi bundan keyingi davrlarda ham Erondagi quyi qatlam aholisining norozilik chiqishlarida g'oyaviy asos bo'lib maydonga chiqdi.

540-yillarda Eftalitlar davlati Hindiston yurishida mag'lubiyatga uchraydilar, lekin yurishda qatnashgan qabila va qavmlar shimoliy Hindistonda o'troqlashib qoladilar va mahalliy aholi bilan aralashib yangi "Rajputlar" etnosini tashkil qiladilar<sup>7</sup>.

Shu bilan birga aytib o'tish joizki eftallarning shimoliy Hindistonga yurishlari to'xtatilgan bo'lsada, bu hududdagi bir zamonlari qudratli imperiya bo'lgan Guptalar davlati zaiflashib qoladi va keyinchalik parchalanib ketadi.

Rajputlar ilk o'rta asrlarda shakllana boshlagan etnos bo'lib, keyingi davrlarda Hindistonda harbiy ish bilan shug'ullanuvchi "kshatriylar" kastasiga kirishgan. E.N. Uspenskaya rajputlarni "O'rta asrlar Hindistoni ritsarlari" deb ataydi va "rajput" so'zi "podshoh o'g'li" degan manoni bildirishini takidlaydi<sup>8</sup>. Bundan rajputlar ajdodi bo'lgan jangovor xalq Eftalitlarning xarakteri namoyon bo'ladi.

Eftalitlar hukmdori Toromana (V asr ohiri – 510-515-yillar)<sup>9</sup> hukmronligi davrida 502-yil Eron tarafida turib, Vizantiyaga qarshi urushda qatnashadi va 506-yilda tuzilgan sulhga ko'ra eftalitlar Vizantiya oltinidan ulushlarini oladilar va bu davlatlar o'rtasidagi ittifoqchilik Kubod o'g'li Xusrav I davrida ham davom qilib borsada, sosoniylarda Eftalitlar davlati istibdodidan qutilish uchun mamlakat ichki kuchlari o'trasida birlashuv yuzaga keladi. Shunday vaziyatda Xusrav I Eftalitlarga qarshi urushga tayyorgarlik ko'radi. Tez orada Eron Sosoniylari uchun qudratli ittifoqchi topiladi. Bu qudratli ittifoqchi davlat Eftalitlar qo'l ostidagi hududlar va Buyuk Ipak yo'lini nazoratga olishni ko'zlagan Turk xoqonligi edi.

Eftalitlar hukmdori Gafara davrida (540-565-yillar oralig'i) Eron va Turklarning birlashgan kuchlari Markaziy Osiyoga hujum qiladilar. Gafara taxtdan ag'darilib Faronish (565-567) o'tqaziladi. Lekin u turk va forslar kuchlariga qarshilik ko'rsata olmadi va g'oliblar Eftalitlar hududini taqsimlab olishdi<sup>10</sup>.

Eftalitlar davlati mustaqilligini yo'qotishi bir vaqtning o'zida ikkita qudratli davlat ittifoqiga qarshi kurash oqibati bo'ldi va bunga mamlakat hukmron doiralarining uzoqni ko'ra bilmaganligi ham ko'malashdi.

Eftalitlar davlatining inqirozi Gafaraning tashqi siyosatidagi xatosi tufayli ham yuzaga keldi. U 560-yilda Eftalitlar hududi orqali amalga oshirilgan va Eronga yuborilgan Turk missiyasi a'zolarini o'ldirishga buyruq berdi. Bu xato oqibatida Eron

<sup>7</sup> Николай Сычев. Книга династий. М.: "Восток-Запад". 2005. -Стр.564.

<sup>8</sup> Qarang: E.N.Успенская. Раджпуты Рыцари Средневековой Индии. Евразя. Санкт-Петербург. 2000. Стр. 9

<sup>9</sup> O'sha manba, o'sha joyda.

<sup>10</sup> Qarang: O'sha manba. -Стр.565.



va Turk xoqonligi o'rtasida ittifoq vujudga keldi. Bu ittifoq kuchlari 565-yilda Eftalitlarga qaqshatqich zarba berdi va bu davlat o'z mustaqilligini yo'qotdi<sup>11</sup>.

Eftalitlar hududining bosib olinishi va mamlakat birlashuvi oqibatida Sosoniylar davlati mustahkamlanib oladi. Eftalitlar davlati hududlari egallanishi, aholisining asoratga solinishi oqibatida Sosoniylar davlati iqtisodiy ahvolini o'nglab oladi. Harbiy qo'shin soni va sifati oshadi. Xusrav I bu qo'shini bilan qo'shni hududlarga harbiy yurishlar amalga oshiradi.

Eftalitlar xavfidan qutilgan sosoniylar O'rtayer dengizi mamlakatlari bilan Xitoy va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarini qo'lga kiritish uchun Vizantiya bilan urushlar olib boradilar. Buning natijasida 572-628-yillarda Yaman Sosoniylar qo'l ostiga o'tadi. Hindistonga boradigan savdo yo'li tez rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida Hijoz orqali o'tadigan karvon yo'lining inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. Bu holat faqatgina Hijoz shaharlarigagina emas, balki barcha arab qabilalarining hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.<sup>12</sup>

### NATIJALARNI MUHOKAMA QILISH

Eftalitlar davlati parchalanishi va boyliklari talanishi natijasida Eron Sosoniylari kuch qudrati oshdi va o'ziga qo'shni hududlarda ta'siri kuchayib bordi. Oqibatida Sosoniylar Yamanni ishg'ol qildilar. Arablar hududidan o'tuvchi savdo yo'llari ahamiyatini yo'qotdi. Bu arab qabilalari hayotida inqirozli holatni keltirib chiqardi. Uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va tushkunlik markazlashgan davlat tuzilishi bilan yakunlandi. Bu davlat tarixda Arab xalifaligi nomini oldi va uning chegarasi g'arbda bugungi Fransiya janubidan, sharqda esa to Xitoy hududlarigacha bo'lgan yerlarni birlashtiradi. O'zi egallagan hududlar aholisi madaniy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Biz quyida har bir temperament turiga mos keluvchi o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha metodik ko'rsatma beramiz!

1) Kuchli, muvozanatli, epchil tip. Serharakat tip. (Sangvinik)-bu temperament turiga mos keladigan o'quvchilar g'ayratli va shijoatli bo'ladi. Ammo, ularning matematikani bo'sh o'zlashtirishlariga sabab g'ayrati va shijoatini boshqa narsalarga yo'naltirganligidadir. Ularga ko'proq qiyin bo'lmagan soddadan murakkabga qarab joylashgan misol va masalalar berish tavsiya qilinadi, chunki ularga tushuntirib bersangiz ko'plab masalalarni ishlab kelishadi.

Masalan: Quyidagi cheksiz davriy o'nlilik kasr ko'rinishidagi sonlarni kasr ko'rinishiga o'tgazing.

- a) 0,(4) 0,(7) 0,(8) 0,(3) 0,(1) 0,(13) 0,(37) 0,(33) 0,(77)  
0,(43) 0,(55) 0,(60) 0,(80) 0,(75) 0,(36) 0,(87) 0,(24)  
0,(48)
- b) 0,2(4) 0,3(1) 0,5(7) 0,9(2) 0,4(4) 0,7(1) 0,9(7) 0,2(2)
- c) 0,2(4) 0,3(1) 0,5(7) 0,9(2) 0,4(4) 0,7(1) 0,9(7) 0,2(2)
- d) 0,21(4) 0,36(2) 0,5(75) 0,7(32) 0,12(4) 0,3(51) 0,12(5)
- e) 2,1(4) 3,5(9) 5,5(5) 2,7(2) 4,12(4) 8,3(51) 2,12(5)

2) Kuchli, muvozanatli, inert (sustkash) tip. Og'ir, vazmin tip. (Flegmatik)- Ushbu temperament turiga mos keladigan o'quvchilar kamgapligi va tortinchoqligi bilan ajralib turadi. Ularga do'stlardek muomala qilish orqali ko'ngliga yo'l topish mumkin. Dars davomida doskaga ko'proq chiqarish va ko'proq e'tibor berish tavsiya qilinadi. Ularni fanga qiziqtirish uchun tasvirli masalalar berish mumkin.



3) Kuchli lekin muvozanatsiz, ya'ni qo'zg'alish tormozlanishdan ustun chiqadigan qizg'in, jushqin tip. (Xolerik)- Ushbu temperament turiga mos keladigan o'quvchilar xayollari har joyda bo'lib, darsga etibor berishmaydi, boshqalarga halaqt qilishadi. Bunday o'quvchilar odatda mantiqiy masalalar yechishni yoqtirishadi. Shu sababli, ularga dars mavzusidan kelib chiqqan holda alohida individual topshiriqlar berish orqali matematik savodxonligini rivojlantirish tavsiya qilinadi.

Masalan: Bo'rilar va quyonlar orolida. Sexrli orolda faqat bo'rilar va quyonlar yashaydi. Ular sexrli xislatlarga ega. Bo'rilar haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlari faqat rost gapiradilar, qolgan kunlari esa faqat yolg'on gapiradilar. Quyonlar esa haftaning payshanba, juma va shanba kunlari faqat yolg'on, qolgan kunlari esa faqat rost gapiradi.

1. Bir kuni Afandi oroldagi daraxt soyasida dam olayotgan bo'ri va quyonga duch keldi. Ular quyidagi gaplarni aytdilar:

Bo'ri: Kechadan oldingi kun men yolg'on gapirgan edim.

Quyон: Shu kuni men ham yolg'on gapirgan edim.

Bu voqea haftaning qaysi kuni ro'y bergan?

4) **Kuchsiz tip.** (Melanxolik)- Juda zaif o'quvchilar, ularni xafa qilishlari mumkin. Bunday o'quvchilar bilan muloqotda bo'lganda uning zaifligini hisobga olish kerak, shuning uchun u boshqalarga qaraganda ko'proq maqtovg'a va dalda olishga muhtoj. Ularni doskaga chiqarganda soddaroq masalalar berib ko'proq maqtash tavsiya qilinadi.

Maktab matematika darslarida a'lo va yaxshi darajada o'qiyotgan o'quvchilar bilan ishlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Ular bilan til topishish ham juda osondir. Ammo, qoniqarsiz darajada o'qiydigan o'quvchilar bilan til topishish va ularga matematik bilimlarni berish birmuncha qiyin hisoblanishini tan olishimiz zarur. Bunga sabab ularning temperament xususiyatlaridan kelib chiqib o'qitmaganimizdadir. O'quvchilarning fe'l-atvori tez o'zgaruvchan hisoblanadi, chunki ular shunaqa yoshda. Temperament xususiyatlarini hisobga olib o'qitishda ular bilan yaqin aloqa o'rnatib, matematikadan boshqa mavzuda tez-tez suhbatlashib turish tavsiya qilinadi. Chunki, ularning temperamenti xususiyatlari o'zgargan bo'lishi katta ehtimol. Biz yuqorida taklif etgan tavsiyalarni albatta dars mavzusidan kelib chiqqan holda yondashish zarur. Masalan, "Har xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirish" mavzusini o'tayotganingizda aynan shu mavzuga doir tasvirli masalalar, mantiqiy masalalar, matnli masalalar va boshqa masalalar berish zarur. Dars muqaddasdir! O'quvchi olishi kerak bo'lgan bilimlar qolib, mavzudan tashqariga chiqib ketmaslik muhimdir. Buning uchun o'qituvchi darsga bir kun oldin yaxshigina tayyorgarlik ko'rishi kerak. Zero, biz kelajak avlodlarini o'qitayabmiz bunga bor kuch quvvatimiz va mahoratimiz bilan yondashishimiz zamon talabidir!

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.: 1994
3. D. I. Yunusova. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent. 2010.
4. Azizhodjaeva N.N. Pedagogicheskie tehnologii i pedagogicheskoy masterstvo. - T.: TGPU im. Nizami, 2003.
5. A.Quchqorov, Sh.Ismoilov "Mantiqiy masalalar". Toshkent-2008
6. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Uchebnik dlya studentov pedagogicheskikh vuzov. - Maskva-1999.
7. B.Q.Haydarov "Matematika" 5-sinf darslik. Toshkent-2015



## INTERNET TARMOQLARI

**IBRAGIMOVA MEHRANGIZ**

*G'ijduvon tuman 2-son Kasb-hunar maktabining*

*INFORMATIKA fani o'qituvchisi*

*Tel: (90)0850204*

**Annotatsiya** : Internet barcha an'anaviy informatsiya tizimlari – telekommunikatsiya, teleradioeshittirish, informatsiyalarni xalqaro miqyosda faol almashtirish va h. k.ning texnologik imkoniyatlarni uyg'unlashtirib qo'llanganligi uchun u bir necha vazifani – informatsiya va bilimlar manbai;

**Kalit so'zlar:** Internet , Internet tizimi, ompyuter tarmoqlari, . IP, elektron pochta, O'zbekiston, informatsiya

**Internet** (lotincha: inter – aro va net – tarmoq) – standart minimal internet protokoli (I) orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IP dir. TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetda ma'lumot tarqalishida asosiy o'rin egallaydi. Internet tarmog'ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonadon tarmoqlari tashkil etadi. Internet elektron pochta, chat hamda o'zaro bog'langan sahifalar va boshqa Butunjahon o'rgimchak to'ri servislaridan tashkil topadi.

Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste'molchilarga ma'lumotni saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko'rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi.

Internet tizimi 20-asr. 60-yillarida paydo bo'ldi. O'sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to'g'ri keldi. AQSH mudofaa departamenti urush bo'lib qolgan taqdirda oddiy kommunikatsiya vositalari ishdan chiqqudek bo'lsa, o'rniga yangi qo'shimcha kommunikatsiya vositalarini izlash bilan faol shug'ullandi. 60-yillar oxiri va 70-yillarda Internet tarmog'i uncha keng rivojlanmadi. Dastlabki o'n yillik xalqaro tarmoq, asosan, harbiylar va yirik olimlarning shaxsiy elektron liniyalari faoliyati doirasi bilan cheklandi. Internetning beqiyos rivojlanish sur'ati davlat, ta'lim, akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o'ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga bog'liq bo'ldi.

20-asr 70-yillarida turli tarqoq kompyuterlar tarmoqlari orasida informatsiyani uzatish va almashinish qoidalari tizimi ishlab chiqildi. Bular o‘zaro hamkorlikka doir qaydnomalar – Internetworking protocols (IP) bo‘lib, global tarmoqni takomillashtirish uchun qulay muhit yaratdi. IP o‘rnatgan tartibga ko‘ra, har qanday alohida tarmoq informatsiyani ko‘p tarmoqlar orqali "birinchi punktdan to oxirgi punktgacha" yetib borishini nazorat qilishi lozim. Shuning uchun Internet negizini tashkil qiladigan qaydnomalar tizimi, xususan, Transmission Control Protocol (TCP), File Transfer Protocol (FTP) ichida IP muhim qaydnomalardan biri hisoblanadi.

Internet rivojlanishining dastlabki bosqichida uni, asosan, AQSH mudofaa departamenti mablag‘ bilan ta‘minlagan. 70-yillar oxiriga kelib esa, asosan, uch ta‘minlash manbai ajralib turdi: xukumat, universitetlar va tadqiqot laboratoriyalari (shu jumladan mustaqillari ham).

80-yillarda Internet o‘ziga xos tarzda universal ko‘lamlargacha rivojlana boshladi. O‘sha davrda Internet vositasida uzatiladigan informatsiyaning o‘sishi "oyiga 20 foizdan ko‘paytirib borish" shiori ostida bordi. Masalan, AQSH ning asosiy tarmog‘i bir sekundda 165 mln. bayt informatsiyani qayta ishlaydi va uzatadi. Bu sur‘at bir sekundda "Brittanika" ensiklopediyasi"ni uzatish uchun yetarli. 80-yillar o‘rtalarida Internetni jamoat va tijorat tarmoklariga ulash natijasida Internet tizimi ham ko‘lam, ham sifat jihatidan rivojlandi. 90-yillarda Internet tizimini boshqarish borasida tub o‘zgarishlar yuz berdi.

Internet standartlar tizimi hisoblanadi. U o‘z faoliyatida o‘zini o‘zi rostlab turish, o‘zini o‘zi boshqarish falsafasiga rioya qilib foliyat yuritadi. Hozirgacha uni boshqarib turadigan yagona tashkilot yo‘q. Uning faoliyatiga doir qoidalar kirish mezonlari sifatida ishlab chiqilgan. Texnik masalalar esa "Internet Engineering Forse (IETL) kompaniyasining faol ishtirokida hal qilinadi, barcha standartlar "Internet Architecture Board" (IAB) kompaniyasi tomonidan qabul qilinadi. 20-asrning oxirgi o‘n yilligida Internet tizimi beqiyos darajada o‘sdi. Agar 80-yillar oxirida Internet tizimiga taalluqli 28000 dan ortiq asosiy kompyuterlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 90-yillar oxiriga kelib ularning soni o‘nlarcha mln.gayetdi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni butun yer yuzi bo‘yicha 160 mln. kishini tashkil qildi (1999).

Shveysariyadagi yadro tadqiqotlari markazlaridan biri multi-media tizimining tarqoq kompyuterlarini yagona tarmoqqa "bog‘lash"ning ancha takomillashgan usulini ishlab chikdi. U "World Wide Web" ("Jahon o‘rgimchak uyasi") tizimida o‘z aksini topdi. Bu tizim Internetni o‘ziga xos ommaviy axborot vositasiga aylantirdi hamda u informatsiya texnologiyalari, radio eshittirish va telekommunikatsiya imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Endi Internet faqat matnni emas, balki tasvirni, suratlarni, rasmlarni, tovush va videotasvirlarni ham uzatishga, voqea yuz berayotgan joydan to‘g‘ridanto‘g‘ri olib berishga ham qodir.

Internet barcha an‘anaviy informatsiya tizimlari – telekommunikatsiya, teleradioeshittirish, informatsiyalarni xalqaro miqyosda faol almashirish va h. k.ning texnologik imkoniyatlarni uyg‘unlashtirib qo‘llanganligi uchun u bir necha vazifani – informatsiya va bilimlar manbai; ommaviy axborot vositasi, insoniyat faoliyatining barcha sohalari (shu jumladan, ta‘lim-tar-biya, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy,

sayyohlik va h. k.) ga taal-luqli informatsiya xizmatlari tizimi; istiqbolli bozor va milliy kom-paniyalarning xalqaro informatsiya maydoni va jahon bozoriga eng tejamli va tezkor usulda qo'shilish imko-nini beradigan vosita vazifasini o'taydi.

Jamoat va tijorat tuzilmalari uchun Internetdan foydalanish imkoniyati oshgan sari provayderlar (Internet bilan aloqa o'rnatishga xizmat ko'rsatadigan kompaniyalar), Internet informatsiyasi iste'molchilari soni ham ko'paymoqda, informatsiya manbai va ommaviy axborot vositasi sifatida Internet ommalashmoqda. Bularning barchasi noshirlar, jurnalistlar, informatsiya agentliklari, i. ch. xamda savdo kompaniyalari va firmalari muhitida raqobatning shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Telefon simlaridan tashqari, optik tolali kabellar, radio tarmog'i yoki sun'iy yo'ldosh orqali Internetga chiqish mumkin bo'ldi. Buning uchun Internet bilan aloqa o'rnatishga xizmat ko'rsatadigan kompaniyalar – provayderlar bo'lishi lozim. O'zbekistonda Internetga ulashga doir informatsiya xizmatlari 1997-yildan ko'rsatila boshladi. Dastlab Naytov (<http://www.naytov.com>), Uznet (<http://www.uznet.net> Arxivlandi 2013-02-16 Wayback Machine saytida.) yoki Istlink (<http://www.eastlink.uz> Arxivlandi 2020-06-12 Wayback Machine saytida.) kabi provaydkompaniyalar faoliyat boshladi (1999). O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish sohalari Internet tarmog'ining aloqa funksiyasidan keng foydalanishga imkon beradi. Internetga ulangan abonent uydagi yoki ishxonadagi kompyuter orqali, aytaylik, AQSH, Avstraliya yoki Afrikadagi kompyuterlarga kiritilgan xilma-xil mavzudagi ma'lumotlarni matn, surat yoki videotasvir ko'rinishida olishi mumkin. Bu ma'lumotlar Internet tizimiga oldindan kiritiladi. Dunyoning turli chekkalarida joylashgan maxsus ixtisoslashgan kompaniyalar qidiruvni tezlashtirishga yordam beradi. Ular "qidiruv dvigateli" deb ataladi, ma'lumotlarning mundarijasini ma'lumotnoma (spravochnik) kabi saqlaydi va o'sha ma'lumotlar joylashgan "Internet adresi"ni abonentga beradi. Mazkur adres bo'yicha ma'lumotlar "Internet varaqchalari" da saqlanadi. Abonent biror ma'lumotni, mas, "paxta" so'zini qidiruv dvigateli orqali qidirsas, shu so'zga tegishli ma'lumotlarni, paxta bilan ish olib boradigan kompaniyalar ro'yxatini yoki jahon birjasida paxtaning narxini abonent kompyuterida chiqarib beradi. Internet varaqchalari shaxsiy va rasmiy bo'lishi mumkin. Shaxsiy varaqchalar alohida shaxslar tomonidan tuziladi va shu shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Rasmiy varaqchalar idoralar, tashkilotlar, kompaniyalarga tegishli bo'ladi, ularda hukumat idoralariga doir ma'lumotlar saqlanadi. Internet orqali savdo-sotiq ishlari, kom-paniyalar xizmatlarini yoki mahsulotlarni reklama qilishni keng yo'lga qo'yish, Internet varaqchalarida suratlar bilan berilgan mahsulotlarni harid qilish mumkin.

Xalqaro Internet tizimida O'zbekiston haqida ham ma'lumotlar bor. Rasmiy varaqchalardan O'zbekiston hukumati varaqchalari, O'zbekistonning AQSH dagi elchixonasi varaqchalari va b. ko'plab rasmiy varaqchalar mavjud. Ularda O'zbekiston Respublikasiga tegishli deyarli barcha ma'lumotlar bor. Bulardan tashqari, O'zbekistonga taalluqli shaxsiy varaqchalar ham mavjud: "Umid" varaqchasi, o'zbek estradasi haqidagi varaqcha va boshqa 2000-yil fevral oyidan boshlab Internet efiriga O'zbekiston televideniyesi (O'z TV)ning "Axborot" dasturi chiqa boshladi, O'z TV sayti tuzilgan va takomillashtirilmoqda. Informatsiya resurelariga oid ko'p masalalarni



respublikadagi yirik kutubxonalar shu sohadagi Internet tarmog‘i ko‘lamiga suyanagan holda hal qiladi. Mas, Tibbiyot kutubxonasi, Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi, O‘zbekiston fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi va boshqa.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishni ta‘minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (2001) O‘zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o‘z mavqeiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ma‘lumotlarni uzatish milliy tarmog‘i O‘zPAK Davlat kompaniyasi va O‘zNET tarmog‘idan iborat.

Internetdan foydalanuvchilar soni, mas, AQSH da 55 mln., Xitoyda 55 mln., Yaponiyada 8 mln.dan oshib ketdi. Keyingi o‘rinlarni Angliya, Kanada

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. „Harlow H. Curtice is dead at 69“. The New York Times (4-noyabr 1962-yil). Qaraldi: 6-oktabr 2009-yil. (fee for article)
3. Larsen, Roy (5–yanvar 1970–yil). „A Letter From The Publisher“. Time. 2013-08-22da asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2015-10-15. Arxivlandi 2013-08-22 Wayback Machine saytida.
4. „Person of the Year 2007“. Time. 24-avgust 2013-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 8-iyul 2009-yil.
5. Von Drehle, David. „Person of the Year 2008“. Time (17-dekabr 2008-yil). 29-aprel 2009-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 17-dekabr 2008-yil.
6. Grunwald, Michael. „Person of the Year 2009“. Time (16-dekabr 2009-yil). 26-avgust 2013-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 16-dekabr 2009-yil.
7. Grossman, Lev. „Person of the Year 2010“. Time (15-dekabr 2010-yil). 15-dekabr 2010-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 15-dekabr 2010-yil.

## DUNYO DINLARINING PAYDO BO'LISHI VA ULARNING INSONIYAT TARIXIDAGI O'RNI

*Xolmatov Abror Sobirovich*

*Toshkent viloyati Ohangaron tumani*

*40-umumiy o'rta talim maktabi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dunyo dinlarining vujudga kelish tarixi, turfa xil ta'limotlari hamda ularning insoniyat tarixidagi o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** din, etiqod, qarashlar, fikr, millat, fakt, insoniyat, tarix

Din inson va jamiyat ma'naviy hayotining bir qismi bo'lib, kishilarni doimo ezgulikka chorlab kelgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida "Din odamzotni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Mamlakatimizda qadim davrlardan boshlab turli millat va elatlar ahil-inoq bo'lib yashab kelmoqdalar. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 10 mingdan ortiq din mavjud. Salkam 8 milliardni tashkil etuvchi jahon aholisining etnik tarkibiga nazar solsak, ikki mingga yaqin millat va elatdan iborat ekaniga guvoh bo'lamiz. Qiziq millatlar sonidan ham ko'p bo'lgan dinlar qanday yuzaga kelgan. Bu borada nazariyada qanday faktlar va tarixiy ma'lumotlar bor. Ushbu maqolada shu xususda olib borgan izlanishlarimizni jamladik. Fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarashga ko'ra dinning paydo bo'lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog'liq. "Teologik yondashuv" ya'ni birinchi qarashga ko'ra, Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O'zini tanitgan, natijada inson ilk dinga e'tiqod qila boshlagan. Bugun mavjud bo'lgan har qanday din o'zining tarixini insoniyat yaralishi – ilk inson bilan bog'lashini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida – Odam va Havvo, yahudiylik va xristianlikda – Adam va Eva, zardushtiylikda – Govmard va boshqalar. Mazkur ta'limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan. Teologik yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan.

### 1. Fetishizmga e'tiqod qiluvchilarning ma'budlari

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda "materialistik yondashuv" deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo'lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Evropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari – din tanqidchilarining paydo bo'lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan "Turlarning kelib chiqishi" (1859) nomli asarning chop etilishi ham turtki bo'ldi. Qator olimlarning fikriga ko'ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri,

emosiyalari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari dinlar soddadan – murakkabga, umumiylikdan – xususiylikka, ko`pxudolikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyusion jarayonni bosib o`tgan deb hisoblashadi. Materialistik qarash qo`rquv dinlarning kelib chiqishida asosiy rol o`ynagan hissiy holat ekanini ilgari suradi. Jumladan, ingliz faylasufi Gerbert Spenser (1820–1903) ham ibtidoiy qabila dinlarining kelib chiqishiga qo`rquv natijasida “ajdodlarga sig`inish” sabab bo`lganligini ta`kidlaydi. Spenser ijtimoiy hisob–kitoblarga suyangan holda, hayot qo`rquvining dinlardagi o`rniga alohida degan nazariyani ilgari surgan. Raqamlarga murojaat qilsak, bugun eng ko`p tarafdorlarga ega dinlar 5 ta bo`lib, ular Islom, Xristianlik, Yahudiylik, Buddaviylik, Hinduizm sanaladi. Diniy e`tiqod mavzusi shaxsiy va erkin tanlovga asoslangan huquq bo`lishiga qaramay, bu borada turli-tuman statistikalar e`lon qilib boriladi. O`tgan 2021 yilgi raqamlarga ko`ra, xristianlik eng ko`p tarqalgan din bo`lib, unga dunyo bo`yicha 2,38 milliard kishi e`tiqod qiladi. Islom diniga e`tiqod qiluvchilar soni esa bugungi kunda 1,91 milliardni tashkil etmoqda. Hinduiylikka sig`inuvchilar soni esa 1,16 milliardga teng. Bu din tarqalish darajasi bo`yicha jahonda uchinchi o`rinda. Buddizmga esa esa 507 million kishi e`tiqod qiladi. Navbatdagi eng keng yoyilgan din yahudiylik bo`lib, unga e`tiqod qiluvchilar soni 14,6 million kishini tashkil etadi. Keling, endi eng ommalashgan ushbu besh dinning paydo bo`lish tarixiga nazar solsak. 1. Demak, izdoshlari soni bo`yicha dunyoda birinchi o`rinda turadigan Xristianlik (yunoncha christos – «muqaddas yog` surtilgan», «xaloskor») milodning I asrida Falastinda yuzaga kelgan. Xristianlik ta`limotining paydo bo`lishi Iso Masih shaxsi bilan bog`liq. Iso shaxsi haqidagi munozaralar fanda mifologik va tarixiy maktablarning paydo bo`lishiga olib kelgan. Mifologik maktab vakillari Isoni to`qima obraz sifatida bilishsa, tarixiy maktab tarafdorlari uning real shaxs bo`lganiga ishonch bildirishadi. 311 yilda xristianlik din sifatida rasmiy ravishda tan olindi. Shu asrning oxirida, imperator Konstantin davrida xristianlik davlat muhofazasini ado etuvchi va unga rahnamolik qiluvchi davlat diniga aylandi. Xristianlikning muqaddas manbasi “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd” deb nomlanuvchi ikki bo`limdan tarkib topgan “Bibliya” (yunoncha – “kitoblar”) kitobi hisoblanadi. (

## 2. “Bibliya” kitobi

1054 yilda xristianlik dini doirasida ilk yirik bo`linish ro`y berib, natijada pravoslav (Sharqiy xristianlik) va katolik (G`arbiy xristianlik) cherkovlari yuzaga keldi. Pravoslavlik tarixan xristianlikning sharqiy yo`nalishi sifatida shakllandi. Nomlanishi yunoncha “orthodoxia” – “to`g`ri e`tiqod” tushunchasining rus tiliga tarjimasidan – Pravoslavlik so`zidan kelib chiqqan. Katoliklik xristianlik dinining eng yirik yo`nalishi hisoblanadi. “Katolik” so`zi butun jahon, butun dunyo (umumiy, dunyoviy) degan ma`noga ega.



2. Islom dini eng keng tarqalgan navbatdagi din bo`lib, bu so`zning arab tilidagi lug`aviy ma`nosi – taslim bo`lish, bo`ysunish ma`nolarini beradi. Islom dini ta`limoti bo`yicha Muhammad payg`ambar (a.s.) avvalgi payg`ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, Qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg`ambar (Xotam al-anbiyo) – nabiy va rasul deb tan olinadi. Islom dini VII asrda Hijoz (G`arbiy Arabiston)da paydo bo`lgan. Islom dinining paydo bo`lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an`anada u ilohiy hodisa, insonlarni to`g`ri yo`lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta`limot deb hisoblanadi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e`tiqod qilgan Xudoga ishonganlar.

3. Qur`oni karim — Islom dinining muqaddas kitobi

Qur`oni karim Islom dinining muqaddas kitobi hisoblanadi. Mazkur kitobning bir necha nomlari bo`lib, ulardan “Qur`on” (arabcha – o`qish), “Furqon” (farqlovchi), “al-Kitob” nomlari mashhur. Qur`on 114 ta sura, 6236 oyatdan iborat. Suralar Qur`ondan bir bo`lak bo`lib, eng kam uchta, eng ko`pi 286 oyatni o`z ichiga oladi. Qur`ondagi suralar o`z mazmuniga yoki nozil bo`lgan vaqtiga, ya`ni xronologik tartibiga qarab emas, balki Muhammad (s.a.v.) belgilab bergan tartib asosida payg`ambar vafotidan keyin jamlab yozilgan. 3. Yahudiylik dunyodagi eng qadimiy milliy dinlardan biri bo`lib, taxminan miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda Misrda paydo bo`lgan. Yahudiylik yagona Xudoga, muqaddas kitobga va payg`ambarlarga imon keltirilishi bilan milliy dinlardan, milliy lashtirilishi bilan esa, ilohiy dinlardan ajralib turadi. Yahudiylikda diniylik va milliylik o`zaro birlashib ketgan bo`lib, ularni bir-biridan alohida tushunish mumkin emas. Yahudiylik dini vakillari tarixiy va adabiy – badiiy manbalarda “yahudiy”, “ibroniy” va “isroil o`g`illari” kabi nomlar bilan tilga olinadi.

4. “Tavrot” — Yahudiylikning muqaddas kitobi

“Tanah” va “Talmud” Yahudiylikning muqaddas kitoblari hisoblanadi. “Tanah” kitobi “Tora” (“Tavrot”), “Naviim” (“Payg`ambarlar”) va “Ketuvim” (“Kitoblar”) kabi uch bo`limdan tashkil topgan. “Tanah” nomi esa, ana shu uch bo`limning ibroniycha bosh harflarining qo`shilishidan hosil bo`lgan.

4. Hinduiylik atamasi “Hind daryosi atrofida yashovchi” ma`nosini bildiruvchi fors so`zidan kelib chiqqan bo`lib, g`arb olimlari mintaqa xalqining dinini ifodalash uchun uni ishlatganlar. Hindlar esa o`z dinlarini “Sanatana Dharma” – azaliy–abadiy din, deya nomlaydilar. Mazkur din, asosan Hindistonda tarqalgan bo`lib, mamlakat aholisining 83 foizi unga e`tiqod qiladi.

5. Hinduizm dinining ilohlari haykali

Hinduiylikda totemistik unsurlar yorqin namoyon bo`lib, bu, asosan, sigir, maymun, ilon kabi xayvonlarning ilohiylashtirilishida namoyon bo`ladi. Hinduiylikning aqidaviy, marosimiy va ramziy sohalaridagi juda ham murakkab tizimi unga e`tiqod qiluvchilarning turlicha talqinida yana ham murakkablashib ketadi.

5. Diniy–falsafiy ta`limot sifatida vujudga kelgan Buddaviylik bugungi kunda e`tiqod qiluvchilar soniga ko`ra, xristianlik, islom dinidan keyingi o`rinda turadigan jahon dinlaridan biri hisoblanadi. Buddaviylik miloddan avvalgi VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga kelgan. Bu davrga kelib ko`p xudolikka asoslangan vedachilik, braxmanlik, jaynizm yangi ijtimoiy sharoitga javob bera olmay qolgan edi. Buddaviylikning asoschisi Siddhartha (sanskritcha “ezguliklar keltiruvchi”) Gautama Shak`yamuni (mil. av. 567–488 y.) real tarixiy shaxs bo`lib, Hindiston va Nepal chegarasidagi Kapilavasta viloyatining Shak`ya qabilasi hukmdori oilasida tug`ilgan. Manbalarda uning ot minish, ov qilish, yugurish, kurash, she`r o`qish, husnixat va boshqa sohalarda mahoratli bo`lgani, bilimlarni oson o`zlashtirgani uchun donishmandlar unga saboq berishga ojiz qolganlari qayd etiladi. (6-rasm)

#### 6. Buddha haykali. Yaponiya

Umuminsoniy g`oyalarning targ`ib etilishi hamda har bir millatning Buddha ta`limotini o`z tilida o`qib–o`rganishi mumkinligi buddaviylikning turli hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan. Milodning birinchi asrlarida buddaviylik butunlay boshqacha tus oladi. Buddha ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko`tariladi va unga sig`iniladi. Buddaviy donishmandlar fikricha, har bir inson juda ko`p ezgu va yaxshi ishlar qilish orqali Buddaga aylanishi mumkin. Buddaviylik qoidalari va axloqiy tamoyillarini o`zida mujassam etgan kitob “Tipitaka” ushbu dinning muqaddas manbasi sanaladi. Hozirda “Tipitaka”ning ilk qo`lyozma nusxasi Shri Lanka (Seylon)da saqlanadi. Yuqorida dunyo xalqlari orasida eng keng tarqalgan besh dinning kelib chiqish tarixiga oid bo`lgan nazariy ma`lumotlarni jamladik. Ta`kidlash lozimki, ushbu dinlarning tub mohiyatida ezgulik va insoniylik g`oyalari ulug`lanadi. Shunday ekan, dinimiz, millatimiz va irqimizdan qat`iy nazar ezgu qadriyatlarni, insoniylikni unutmaylik.

#### References

1. Temirov. R. Hidoyat Journal 2011. Issue 2. Qadriyat.uz
2. Yodgorov. Sh. Early stages of formation and development of Arab-Muslim culture (VII-XI). Tashkent. 2012.
3. Qosimov.E. World History Ancient and Medieval Period. Tashkent. 2013. b431.
4. Fletcher, Richard. Moorish Spain. New York, 1992. P. 155.
5. Sulaymonova. F. East and West (cultural relations of ancient and medieval times). Tashkent-1997.p.-260.
6. Mamajonova I. (2019). Historical factors of formation of the notarial sphere in our country Modernization in the process of education and upbringing, 1 (14), 88- 95.
7. Toshtemirova C. (2019). Comments on the study of collectivization and its consequences in Uzbekistan. Tafakkur ziyosi, 1 (3), 78-80.

## ZAMONAVIY DUNYODA KSENOFOBIYA VA UNING TURLARI

*Rasulova Nilufar Xolmurodovna*  
*Toshkent viloyati Ohangaron tumani,*  
*40-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*Tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ksenofobiya va uning har xil turlari haqida soʻz yuritiladi. Ksenofobiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi (BMT), tenglik sharoitida tan olinishni bekor qilish yoki kamaytirish maqsadiga yoki natijasiga ega bo'lgan irq, rang, nasab yoki milliy yoki etnik kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday farqlash, chiqarib tashlash, cheklash yoki imtiyozni taxmin qiladi. , siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda yoki jamiyat hayotining boshqa har qanday sohalarida inson huquqlari va asosiy erkinliklari.

**Kalit soʻzlar:** madaniyat, ziddiyat, fobiya, idrok, qadriyat, vahima, qoʻrquv

Madaniyat yodgorliklarini yo'q qilish va shaxsiy tahqirlash - ksenofobiya nuqtai nazaridan minimal zarar. Xenofobiya boshqa millatlarga nisbatan nafratni kuchaytiruvchi millatlararo ziddiyatlar, millatlararo farqlarga asoslangan inson boshqa odamni osongina yo'q qiladigan, axloqiy tonlardagi harakatini bo'yab olgan - har qanday insonda dushmanni tasvirleydigan, poydevorsiz muayyan harakatlar uchun.

Diniy ksenofobiya

Fobiya har qanday shaklda - vahima qo'rquvi, odamlarni aqldan ozish va ahmoqona harakatlarga majbur qiladi, atrofdagi dunyoni noto'g'ri idrok qiladi. Olimlar tarixiy munosabatlar jarayonida - urushlar, urushlar, madaniy qadriyatlarni o'zgartirish, genetik ksenofobiya shakllanishi mumkin degan fikrni bildiradi. Psixologlar ksenofobiya yuqumli ekanligini aytishadi - boshqalarga osonlik bilan etkaziladi. Bunday davlatni eng ko'p uchraydigan ksenofobiya turlariga ajratish qabul qilinadi:

irqiy;  
diniy;  
hududiy  
etnik kelib chiqishi;  
uy xo'jaligi;  
ijtimoiy.

Ksenofobiya ochiq ko'rinishda ifodalangan bo'lsa, odamlar yoki millatlar zarar ko'rishi mumkin bo'lgan noxush kurashdir. Ksenofobiya ham kam uchraydi:

Sexizm - boshqa jinsga nisbatan chidamsiz munosabatdir.

Ageism - yoshga qarab odamlarga nisbatan zo'ravonlik bilan javob.

Handikapizm - shaxsni jismoniy qobiliyatlarga ko'ra kamsitish - nogironlik.



### Ksenofobiya va irqchilik

Odamning irqqa nisbatan alg'ov-dalg'ov tushunchasiga irqchilik deyiladi. Irqiy ksenofobiya - insonga qarshi qo'rquv va tajovuz, axloqiy bosim va haqorat, insonning o'ziga xos teri rangi, dini, madaniy qadriyatlari, og'zaki nutqiga asoslangan milliy asosda tahqirlash. Tarixda odamlarni "yuksak" va "past" irqqlarga aylantirgan misollar mavjud, u erda millatning belgisi hukm chiqarilgan - inson vayron qilingan.

### Ksenofobiya va ekstremizm

"Ekstremizm" so'zi frantsuzcha ildizlarga ega bo'lib, tarjimada bu - haddan tashqari, ya'ni mafkuraviy qarorlar va harakatlardagi chegarani belgilaydi. Chet elliklar uchun xavfli bo'lgan narsa - ksenofobiya haqidagi badiiy muammodir. Ijtimoiy mafkura jamiyatda madaniy va etnik qadriyatlarni yo'qotishdan qo'rqadi, ularni boshqa xalqlarning qadriyatlariga aralashish bilan bog'laydi - ma'lum bir mamlakatda odatiy bo'lmagan xatti-harakatlar normalariga nisbatan nafratni, umume'tirof etilgan dunyoqarashni anglatadi.

### Ksenofobiya va shovinizm

Shovinizm - boshqa millatlardan ustunlik qilishning g'ayratli tuyg'usidir, ko'pincha boshqa millatlarga zulm qilishni oqlash uchun ilhomlantiruvchi, har xil irqqlarga va xalqlarga yoqmaslik uchun ilhomlantiradi. Ksenofobiya hissiyotlari shovinizm deb ataladi, radikal harakatlar manbai, boshqa xalqlarga qarshi - axloqiy zo'ravonlik uchun bahona, jismoniy yo'q qilish.

### Ksenofobiya va millatchilik

Milliyetçilik - vatanga muhabbat, ota-bobolarining va zamondoshlarining etnik va madaniy qadriyatlarini, butun dunyo miqyosida yurtdoshlarimizning yutuqlari bilan faxrlanaman. Buzuq yoki soxta millatchilik - ksenofobiya namoyishlari, odamlarni rad etish va tajovuzkor xatti-harakatlarda namoyon bo'lgan axloqiy qadriyatlar, harakatlar. Inson boshqa odamni rad etadi va e'tibordan chetda qoladi, hatto "begona" ning ustunligi bo'lsa ham, uning ijobiy fazilatlarini inkor qiladi, uning "o'z" xalqiga tegishli bo'lmaganligi sababli uning qadr-qimmatini ochiqdan-ochiq buzadi.

Milliyizm o'zining haqiqiy ifodasida boshqa xalqlarga, dinlarga nisbatan hurmatsizlik munosabatda emas. Millatchining maqsadi - tarixiy va madaniy qadriyatlarga, milliy an'analarga bo'lgan mehr-muhabbatdir. Xalqaro va konfessiyalararo do'stlik, bunday shaxs uchun - o'z xalqining qadriyatlarini va milliy sayyohlarini ifoda etish va ko'rsatishning bir usuli.

### Bardoshlik va ksenofobiya

«Tolerantizm» atamasi chet elliklarga, xorijiy jamiyatga, noma'lum madaniy va axloqiy qadriyatlarga, ijtimoiy me'yorlarga mos keladigan munosabat sifatida tasvirlanishi mumkin. Har bir inson chetga nisbatan bag'rikenglik nuqtai nazaridan o'z chegarasiga ega. Yabanciofobi bilan shaxsiy kurash dushman sifatida emas, balki,

raqib sifatida, bir xil masalalar bo'yicha umumiy fikrlarga ega bo'lgan boshqa bir vakil, umum qabul qilingan an'anaviy normalarga alohida yondashuvni anglatadi.

Ksenofobiya insonni boshqa madaniyatga chidamli, tajovuzkorlik yoki hurmatsizlikka undashga undashi mumkin. Uning atrofida yashovchilarni dushmanlarga qarshi qaratilgan harakatlarga qarshilik ko'rsatish uchun boshqa odamga qarshi dushmanlik qo'rquvini keltirib chiqaradi. Ksenofoblar bir-biriga o'xshash odamlar va formalar guruhlarini topadi, ular bunday olomon bilan sabrli odam bilan bahslasha olmaydi.

Xenofobi - qanday davolash mumkin?

Ksenofobiyaning jamiyatdagi tajovuzkor harakatining ildizi millatchilik, siyosiy qarashlar, ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. Ba'zi hollarda, kelib chiqishi sababi o'tmishdan salbiy xotiralar. Bolalikda ma'lumot olish - boshqalar bilan muloqot qilish taqiqlanadi - begonalarga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi mumkin.

Psixologlar ksenofobi bilan ruhiy kasallik sifatida kurashishni tavsiya etadilar, inson boshqalarga nisbatan pozitsiyasini asossiz deb bilishi kerak, u aloqalarni o'rnatish va etarlicha muloqot qilishni taqiqlaydi. Psixoterapevtik treninglar va tushuntirishlar suhbatdoshlar obsesif qo'rquvdan va begonalarga qarshi dushmanlik xurujidan xalos bo'lishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Резолюция ГА ООН 1904 (XVIII) от 20 ноября 1963 г.
2. Commission on human rights. Fifty-third session (E / CN. 4 / 1997 / 71. 16 January 1997). Implementation of the Programme of Action for the Second Decade to Combat Racism and Racial Discrimination. A.  
3. 3 A / CONF.189 / 5. II. 1
4. Рассел Б. История западной философии. Новосибирск. 1997. С. 393.
5. О состоянии прав человека в Европе. Док. 11202. 22 марта 2007 г.
6. О состоянии прав человека и демократии в Европе. О состоянии демократии в Европе. Док. 11203 203. 26 марта 2007 г. П. 30.
7. A digression: Origins of xenophobia in Denmark  
<http://randomlatitudes.blogspot.com/>
8. Буш одобрил операцию по дестабилизации Ирана  
<http://news.mail.ru/politics/1337182#>

## ALIFBONING PAYDO BO'LISHI VA UNI 1-SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH USULLARI

*Mo`ydinova Mo`tabar Nurdinjonovna*

*Toshkent viloyati Ohangaron tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada alifboning paydo bo'lishi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining savod chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda qo'llaniladigan metodlar haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, savod chiqarish, dam olish daqiqasi, bo'g'inlar jadvali, aksini ayt o'yini.

Bizga ma'lumki savod o'rgatish juda murakkab jarayon bo'lib, 4 oy davom etadi. Birinchi sinf o'quvchilari bu jarayonda bir xil o'zlashtira olmaydilar. Ayrim o'quvchilar tez o'rgansalar, ayrimlari o'zlashtirishda ortda qoladilar. Savod o'rgatish jarayoni 2 davrga bo'linadi: Alifbogacha tayyorgarlik davri. (2 hafta) 2. Alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi). 1. Alifbogacha tayyorgarlik davrida bolalar maktab, sinf, tartib-intizomqoidalari, o'quv qurollari, bilan tanishadi, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazilib, fonematik eshitishni o'stirishdan iborat. I. Alifbogacha tayyorgarlik davri ikki bosqichga bo'linadi: 1. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta) 2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta) 1. Harf o'rganilmaydigan bosqich- bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe" da berilgan rasmlar asosida hikoya, tuzdirishdan tashqari o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tezaytish, maqol, topishmoq qo'shiqlar aytiriladi. Yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtiriladi, harf elementlari yozishga o'rgatiladi. 2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqichda unli tovush-harflar o'rgatiladi. II. Alifbo davri. Bu davr. 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh -harflar bilan tanishadilar. Savod chiqarish jarayoni bosqichlari bilan ham tanishib oldik. 4 oy davom etadigan ushbu jarayonni bosqichli amalga oshirish davomida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ham o'quvchilarimiz ham bir qator qiyinchiliklarga uchraydi. Birinchi sinf o'quvchilari bog'chada yoki uyda ko'p vaqtini o'ynab o'tkazganligi sababli sinfda o'tirib, dars mavzusini tinglashi qiyin bo'ladi. Ularni ko'niktirish mashg'ulotlarga qiziqtirish kerak. Sinf xona ko'rinishi jihozlanishida chinakam "mo'jiza" yaratish yaxshi natija beradi. Bunda har o'qituvchi xonaga ertak qahramonlari aks ettirilgan bukletlar tayyorlash, turli xil rangli qog'ozlardan katta harflar yasab sinf pardalariga ilish o'ziga xos bezatish lozim. Alifbogacha tayyorgarlik davrining birinchi bosqichida rasmlar asosida og'zaki tushunchalar beriladi. Bu jarayonda bolalar tez zerikadilar sababi esa



miyani qabul qiluvchi qismi 20 daqiqada yopiladi. O'qituvchi qanchalik tushuntirmasin o'quvchilar qabul qilaolmasligi tabiiy holat. Har 20 daqiqadan so'ng 10 daqiqa dam olish daqiqasi o'tkazish maqsadga muvofiqdir. I. Dam olish daqiqalarida quyidag imavzularda savol-javob o'tkazish mumkin: 1. Gullar ranglari haqida 2. Yoqtirgan mevalari to'g'risida 3. Qushlar 4. Yoqtirgan taomlari 5. She'rlar aytirish II. "Aksini ayt" o'yini: o'qituvchi birinchi so'zni aytibqarama-qarshi so'zni topishlarini aytadi. Masalan: oq-qora, yaxshi-yomon, kun-tun, issiq-sovuq va hokazo. III. "Buni top" o'yini: iste'mol qilinadigan narsalar nomini aytganda chapak chalinishi bolalarga tushuntiriladi. O'qituvchi o'quv qurollari, uy jihozlari, tabiat jismlariga oid so'zlarni vaqtini poylab aralashtirib aytadi. Masalan: anor, asal, ananas, anjir, banan, behi, do'lana, do'lma, jiyda, jilg'a, tosh. Ana shunday davom ettirib boriladi. Bu o'quvchilarni zerikishdan chiqaradi va diqqatini oshirib faollashtiradi. Alifbogacha tayyorgarlik davrining ikkinchi bosqichida unli tovush va harflar o'rgatiladi. a) Talaffuzda to'siqqa uchramasligi. Dastlab hamma bolalar birgalikda talaffuz qiladi, alohida so'rash yaxshi natija beradi. O'quvchilar talaffuz qilishi va o'rganishi har xil. Alohida ishlash I sinf o'quvchilarini savod chiqarish jarayonida juda muhim. b) cho'zib aytirish. Individual ishlash yaxshi natija beradi. c) Faqat ovozdin tashkil topish. Dastlab hamma bolalar birgalikda talaffuz qiladi, alohida so'rash lozim. Ayrim bolalar ichida to'g'ri talaffuz qilsada aytganda yetarli balandlikda aytmasligi mumkin. Qayta-qayta ishlash lozim. Alifbodavri. 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush harflar bilan tanishadi. Alifbo davrida – tovushlarni talaffuzi o'qilishini o'rgansalar, yozuv darsida harflarni to'g'ri va chiroyli o'rgana boshlaydi. Savod o'rgatishda yaxshi natijaga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: 1. "Harfni top". Karton qog'ozga yozilgan o'quvchi uchun o'rganilgan tanish va o'rganilmagan notanish harfarni aralashtirib, o, a, n, m, u kabi o'tilgan harflarni topadi bu qaysi harf ekanligini aytadi, doskaga yozilishini yozadi. 2. Bo'g'inlar jadvalini to'ldirish. Vatman qog'ozga har kuni o'tilgan bo'g'inlarni o'qituvchi tomonidan yozib boriladi. Har kuni bolalar jo'r bo'lib o'qiydilar. So'ng har bir o'quvchiga alohida o'qitiladi. Bu usulda bolalar so'z hosil bo'lishini ko'rib tushinib boradi. Yodda saqlash oson. Masalan: Bo'g'inlarni o'rganamiz no in nom non ni-na ma-na na ma a-na mo o-na mi min Shu tariqa to'ldirib boriladi. So'zlarni o'qish osonlashadi. 1. O'quvchilarga alifbo darsidan ham daftar tutishlarini tashkil etish. Alifbo kitobidagi bosma harflarini yozma shaklda ko'chirishni o'rganib boradilar. 2. Dam olish daqiqalari uchun "So'z topish" o'yini. O'yinda guruhlarda ishlanadi. Qatorlar o'rtasida tashkil etish mumkin. Birinchi o'quvchi so'z aytadi, ikkinchi bola tezlik da sinfdoshi aytgan so'zni oxirgi harfi bilan boshlanuvchi so'zni topib aytishi kerak. "Boychechak" guruhi "Binafsha" guruhi "Moychechak" guruhi ona ana asal lola ayiq qora qulupnay yo'l limon non ninachi ip pilla alla anor

Bu usuldan III-chorakda ona tilida foydalansa ham bo‘ladi. Ya’ni topgan so‘z doskada yozdir ish mumkin.

### **Foyddalaniladigan adabiyotlar:**

1. Azizxo‘jayeva N.N “Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat”Toshkent 2006
2. Bo‘ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojliyev “Pedagogik texnologiya - zamonaviy o‘zbek milliy modeli.Toshkent.2009
3. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. “Academic research in educational sciences”, 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>
4. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.
5. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472.
6. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.
7. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке.

## XORIJIY MAMLAKATLARDA ENERGIYA ISTE'MOLI ME'YORLARINING TADQIQOTI

*Doc. Xakimov G'ayrat (Toshkent arxitektura-qurilish institute)*

*Mag. Janiyazova Aypara (Qoraqalpoq davlat universiteti)*

*Mag. Sadullaev Rasulla (Qoraqalpoq davlat universiteti)*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada energiya tejaydigan uylar, texnika va texnologiyaning eng songgi yutuqlari asosida energiya resurslaridan iqtisodiy jihatdan oqilona foydalanish, Binolar elektomobillarni zaryadlovchi qurilmalar haqida.

**Kalit so'zlar:** aqilli uy, passiv uy, energiya samarador uylar.

Energiya samarador tushunchasi, avvalo, texnika va texnologiyaning eng so'nggi yutuqlari asosida energiya resurslaridan iqtisodiy jihatdan oqilona foydalanishga erishganlikni anglatadi. Uning maksimal energiya samaradorligiga birinshi navbatda, yakuniy natijani yomonlashtirmagan holda issiqlik yoqotishni kamaytirish va barcha energiya jarayonlarida issiqlik energiyasidan oqilona foydalanish hisobiga erishiladi. [1].

Birinchi energiya samaradorli uylarning loyihasi bilan AQSH da shug'illanishgan. Hozirgi davrda energiya samarador binolarni qursh boyicha bir qator ijobiy ishlar Evropada ham amalga oshirilmoqda. Evropa mamlakatlari tajribasiga ko'ra, hattoki, eski me'yorlar asosida qurilgan yashash uy-joylarida ham energiya yo'qotilishini kamaytirish mumkin. Evropada binolarning energiya iste'moli boyicha turkumlanish qu'yidagicha:

«Eski binolar» (1970 yilgacha) 300 kvtc/m<sup>2</sup> sarflaydi;

«Yangi bino» (1970 yildan 2000 yilgacha) yiliga 150 kvtc/m<sup>2</sup> dan ko'p sarflamaydi;

«Energiyani past iste'mol qiladigan uy» yiliga 60 kvtc/m<sup>2</sup> dan ko'p sarflamaydi;

«Passiv uy» yiliga 15 kvtc/m<sup>2</sup> dan ko'p sarflamaydi;

«Nol energiyali uy» yiliga 0 kvtc/m<sup>2</sup> sarflaydi

«Plyus energiyali uy» yoki «Aktiv uy» qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hisobiga iste'mol qilinganiga ko'ra koproq energiya ishlab chiqaradi.

Odatda energiya saamarador binolar ikki turga bo'linadi:

Passiv va aktiv.

Passiv uylar koncepciyasi shved professori Bo Adamson tomonidan oylab topilgan bo'lib, bunday uyga qoyilgan birinchi talab Skandinaviyaning qahraton qish sharoitida minimal isitish bilan qishni o'tkazish hisoblangan. Energiya samarador yoki bolmasa tashqi energiya manbalaridan va tashqi muhitdan maksimal darajada mustaqil bo'lgan «passiv uylar» deb ataluvchi binolarni loyihalashtirish va yaratish tog'risidagi



g'oya o'rtada tashlangan. Natijada « passiv uylar» koncepciyasi jahon iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirishda haqiqiy portlash boldi [2; 4]

Energiya samarador binolarni qurishda dunyoda yetakchi mamlakatlarning biri Germaniya hisoblanadi. Аугсбург ( Bavariya, Germaniya ) da ijobiy energetic muvozanatli qishloq barpo etildi, bu qishloq binolari iste'mol qilinadiganga nisbatan ko'proq elektr energiya ishlab chiqaradi degani. Gap faqat yoritish yoki maishiy uskunalarni quvvatlantirish uchun foydalaniladigan elektr energiyada emas, isitish tizimi, issiq suv ta'minoti va boshqalarni ham o'z ichiga olgan butun iste'mol qilinadigan energiya haqida bormoqda.



Qishloq 13 bino kuchli tashqi issiqlikka egakeramik toshlardan qurilgan 9individual uy va 4 ikki qavatli kottejdan iborat. Kottejning maksilam maydoni: 161m<sup>2</sup>.

Binolar KfW-Effizienzhaus 55 standartiga muvofiv loyihalashtirilgan va qurilgan bu KfW taraqqiyot bankining yuqori energosamarali binolari standartidir. «55» raqami birlamchi energiya xarajati bu erda amaldagi davlat normasidan 55 foizdan oshmasligi kerakligini anglatadi. Bugunga kelib kfw-Effizienzhaus 55 standarti taxminan Passiv uy mezonlariga muvofiv keladi. Shu tariqa qishloq binosi issiqlik energiyasiga bo'lgan talabning juda pastligi bilan ajralib turadi.

Har bir binoda quyosh elektr stanciyasi o'rnatilgan. Yakka tartibdagi uyda - 11.8kvt quvvatli, ikki qavatli kottejda bir oilaga 7.56kvt. u 6.4 kvt/c sig'imlii litiy ion elektr energiya yig'uvchisi bilan uyg'inlashadi. Shuningdek, binoda issiqlik energiya toplovchisi, bir uy uchun 1500 l va kottejlarda bir oila uchun 1000 l sig'imli baki ham ornatilgan. Issiqlik va issiq suv ishlab chiqarish fotoelektr stanciyasidan sozlamalarga muvofiq keluvchi havo-suv issiqlik nasosi orqali amalga oshiriladi. Bunday binolarda issiqlik rekupertsiyasi ( issiqlik uzatish) bo'lgan ventilyacion qurilma « seriyali «

bo'lishi kerak. Mazkur holatda 90% li issiqlik uzatish koefficientiga ega qurilmalar qollaniladi.

Yakka tartibdagi uy uchun umumiy energetikxarajatlar yiliga 6651 kvт/s ni tashkil qiladi, ikki qavatli kottejning yarmiga □yiliga 6050kvт/s. bunda quyosh elektr stanciyalarining rejali ishlab chiqarishi yiliga 13168 va 8343 kvт/s ni tashkil qiladi, yani shaxsiy uyda bir yilda energiya ishlab chiqarish uning iste'molidan ikki baravar oshadi.

Binolar elektomobillarni zaryadlovchi qurilmalar bilan jihozlangan. Ishlab chiqariluvchi ortiqcha energiya shu taruqa qo'llanishi mumkin. Bugun Germaniyada shaxsiy elektr energiyani tarmoqqa sotgandan ko'ra uni iste'mol qilgan foydaliroq.[3]

Hulosa qilib aytganda, olib borilgan izlanishlar va takliflarimiz natijasida energiya samarali va tejamkor uylarni qurish va ulardan foydalanish borasida toplangan ilg'or xorijiy tajriybalarni qiyosiy o'rganish va ulardan buyuk O'zbekiston va uning hududlarida joriy etish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

1. Energiya samaradorli va energiya tejamkorli binolarni qurishni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini shakllantirish va uni doimiy takomillashtirib borish.

2. Aholi o'rtasida energiya samarali va energiya tejamkor resurslar asosida uy-joylarni qurish va ulardan foydalanish istiqbollari to'g'risida targ'ibot va tashviqot ishlari samaradorligini oshirish

